

МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕГО СПЕЦИАЛЬНОГО  
ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН  
ЦЕНТР СРЕДНЕГО СПЕЦИАЛЬНОГО  
ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

---

---

**А. РАФИЕВ, Н. МАХМУДОВ,  
И. ЮЛДАШЕВ**

**ДЕЛОПРОИЗВОДСТВО  
НА ГОСУДАРСТВЕННОМ ЯЗЫКЕ**

*Учебное пособие для русских групп  
академических лицеев и колледжей*

**Шестое издание исправленное**

*Издательско-полиграфический творческий дом имени Чулпана  
Ташкент — 2016*

УДК 35.077.1=512.133(075)

ББК 65.050.2я722

М 36

*Рекомендовано к изданию Советом по координации  
деятельности учебно-методических объединений высшего и  
среднего профессионального образования*

Переводчик Р.У. АЗИМОВА

**Рецензенты:**

**Ю. Таджисев** — доктор филологических наук, профессор,  
**С. Усманов** — кандидат филологических наук, доцент.

**УСЛОВНЫЕ ЗНАКИ:**



— следует знать



— следует запомнить

В учебном пособии «Делопроизводство на государственном языке», созданном на основе образцовой учебной программы по данному предмету, представлены теоретические разработки по грамматике узбекского языка, развитию устной речи, составлению и редактированию текстов. Приводятся сведения из истории узбекского архивного дела и культуры делопроизводства, а также формы некоторых видов документов. В нем также представлены упражнения и задания по закреплению пройденного материала.

Данное издание предназначено для учащихся русских групп академических лицеев и колледжей. Его могут использовать и студенты высших учебных заведений, преподаватели, а также работники канцелярий в своей практической деятельности.

ISBN 978-9943-05-876-7

© ИПТД имени Чулшана, 2011  
© ИПТД имени Чулшана, 2016

## ПРЕДИСЛОВИЕ

Одним из требований в подготовке высококвалифицированных кадров во всех сферах национальной экономики страны является приобщение к национально-нравственным ценностям, знание государственного языка, умение четко изъясняться на нем и письменно излагать свои мысли, вести делопроизводство на уровне мировых стандартов. В этих целях, на основе действующей учебной программы создан учебник «Делопроизводство на государственном языке» для учащихся русских групп академических лицеев и колледжей.

Закон Республики Узбекистан «О государственном языке» обеспечил общественно-политический статус узбекского языка и создал условия для его дальнейшего широкого развития. В частности в статьях 8, 9, 10 данного закона констатируется о подготовке на государственном языке документов и ведении дел в органах управления, предприятиях, учреждениях.

В этих целях в учебных заведениях обеспечиваются условия для полноценного овладения учащимися и студентами узбекским языком как национально-нравственной ценностью, навыками письма, устной речи и составления документов. Так, в академических лицеях и колледжах введены уроки «Делопроизводство на государственном языке». По данному предмету составлена учебная программа, на основе которой создано учебное пособие «Делопроизводство на государственном языке». Предлагаемое учебное пособие является переводом расширенного варианта узбекского издания, доработанного и дополненного на основе опыта проведенных уроков по данной дисциплине, с учетом мнения преподавателей.

Содержание основной части учебного пособия, а также учебного материала в разделе «Приложение» направлены на развитие грамотности на основе официально-делового стиля при овладении речью, письмом и эпистолярным искусством — правильным составлением текста писем, обретение навыков ведения делопроизводства. В этих целях в учебное пособие в понятной и

лаконичной форме изложены теоретические вопросы, касающиеся норм литературного языка, строения текста и выбора верного пути в оформлении документов. Весь теоретический материал представлен под условными знаками, обозначающими: «следует знать» и «следует запомнить». Представленные в учебном пособии задания и упражнения способствуют обретению навыков составлять, редактировать, сокращать, расширять, обновлять или сохранять основу разных деловых текстов.

Теоретические знания в единой стилистике изложены в главах «Язык и речь», «Правописание письменной речи и основы культуры речи», «Нормы узбекского литературного языка», «Стилистические нормы речи», «Форма и строение текста», «Виды документов и основы делопроизводства». Они помогут учащимся освоить не только теоретические знания, но и закрепить практические навыки грамотной речи. Учебно-практический материал, состоящий из текстов различной формы и содержания, а также деловых бумаг, направлен на развитие способностей учащихся в ведении делопроизводства на государственном языке, их умения использовать необходимые лексико-синтаксические средства, соблюдать логическую последовательность при составлении образцов документов. Преподаватель данной дисциплины должен обеспечить выполнение всех заданий и упражнений, дополнив их при надобности материалами теоретического и практического содержания.

Стилистический материал должен заинтересовать учащегося и привить ему умение самостоятельно составлять соответствующий документ. Письмо или ответ на письмо, направляемое в требуемую инстанцию, должно ясно и точно выражать точку зрения учреждения, обоснованно излагать предложение или отказ, содержать обобщение и вывод. При этом корреспондент должен умело использовать особенности языка, такие как вводные слова, прямую речь и другие грамматические нюансы.

Авторы с благодарностью примут все отзывы и замечания по совершенствованию данного учебного пособия. Надеемся, что оно будет способствовать дальнейшему интеллектуальному развитию учащихся, углублению их мышления, критическому осмыслинию происходящих событий, совершенствованию и обогащению их речевого потенциала, умению ясно излагать свои мысли и работать с документацией в будущей практической деятельности.

# КУЛЬТУРА РЕЧИ

## ЯЗЫК И РЕЧЬ

- ◆ Общественно-образовательная задача языка.
- ◆ Язык и мышление.
- ◆ Язык и речь.
- ◆ Развитие узбекского языка.

**Задание 1.** Прочитайте текст. Найдите и разъясните предложения, характеризующие общественно-образовательную задачу языка.

Dunyoga kelgan har bir bola haqiqiy inson bo‘lib yetishishi uchun juda ko‘p narsalarni bilishi kerak.

U o‘ziga kerakli bilimni ko‘rib, eshitib va o‘qib o‘rganadi. Eshitib, o‘qib o‘rganish til vositasida amalga oshadi va uning imkoniyati cheksizdir. Agar til bo‘lmay, har bir kishining tirikligi uning o‘z tajribasiga asoslangan bo‘lsa edi, inson shu kungacha hayvon qanday yashasa, shunday yashagan va bugungi moddiyima’naviy taraqqiyotga erishmagan bo‘lardi.

Tilning birligi, ma’rifiy ahamiyati shundan iboratki, til tufayli jamiyat a’zolarining har birida hosil bo‘lgan bilim ommalashib, uning ko‘pchilik tomonidan rivojlantirilishiga imkon tug‘iladi. Undan tashqari til tufayli bilim avloddan-avlodga og‘zaki va yozma tarzda qoldiriladi, natijada yangi avlod o‘tgan avlodning ishini yangidan boshlamasdan, uni davom ettiradi.

Til ilm olishda zamon va makon g‘ovini o‘rtadan ko‘taradi. U tufayli eng qadimgi ma’lumotlarga ega bo‘lamiz va hatto kelgusiga oid ma’lumotlarni ham olamiz. Til tufayli sezgi a’zolari bilan bilib bo‘lmaydigan narsalarni ham o‘rganamiz. Ko‘rinishi, shakli bir narsalarning aksi ongimizga o‘rnashishi mumkin, lekin shaklsiz narsalarni biz faqat so‘z shaklida o‘zlashtiramiz. Xuddi shuningdek, mavjudotning ko‘rinmas ichki jihatlarini ham so‘z shaklida o‘zlashtiramiz va til vositasi bilan o‘zgalarga tushuntiramiz.

Tilni o‘rganish va o‘rgatishni osonlashtiradigan yana bir jihat shundaki, u umumlashtirish xususiyatiga ega. So‘z yordamida biz mavjudotni o‘rganib, umumiyl tushunchalar hosil qilamiz va bu tushunchalar mavjudotning umumiyl xossalariini o‘rganishga, hatto ularning haqiqatini idrok etishga imkoniyat tug‘diradi.

*Алибек Рустамов, из книги «Речь о речи»*

**Задание 2.** На основе данного выше текста ответьте на следующие вопросы:

1. Til ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat taraqqiyotida qanday o‘rin tutadi?
2. Til va madaniyat tushunchalari o‘rtasidagi bog‘liqlik nimadan iborat?
3. «Til robitayi vositayi olamiyondur» (*Аваз Умар*) jumlasini izohlang.
4. Bilim egallahsha til qanday vazifani bajaradi?
5. Fikrlash bilan so‘zlash o‘rtasidagi bog‘liqlik va farqni tushuntiring.

**Упражнение 1.** Перепишите предложения, объясните смысл выделенных слов.

1. Har bir millatning tili ikki xil **ijtimoiy** vazifani bajaradi: bir tomondan, jamiyat a’zolari orasida o‘zaro **aloqa** uchun xizmat qilib, ularni birlashtiradi, ikkinchi tomondan, bir millatni boshqasidan ajralib turishini ta’minlaydi. 2. Har bir millatning dunyoda borlig‘in ko‘rsatadurg‘on **oyinayi hayoti** til va adabiyo-tidur. Milliy tilni yo‘qotmak, millatning **ruhini** yo‘qotmakdur (*A. Авлони*). 3. Tildagi har bir so‘z, uning har bir shakli inson **tafakkuri** va tuyg‘usining natijasidir, o‘sha tafakkur va tuyg‘ular orqali so‘z yordamida mamlakat tabiatini va xalq tarixi ifoda etilgan (*К.Д. Ушинский*). 4. Ki har neni **bilmish** odamizot, Tafakkur birla qilmish odamizot (*A. Навои*). 5. Kim ravshan **fikrlasa**, u ravshan bayon etadi (*H. Буало*). 6. Til fikrni yaratuvchi a’zodir. **Aqliy faoliyat** va til yaxlit butunlikni tashkil etadi (*B. фон Гумбольдт*). 7. So‘zlash **qobiliyati** hodisalar ichiga kirishning yagona va bebaho vositasidir (*Л.Н. Толстой*).



В деятельности человека язык — величайшее средство осознания действительности, способствующий обмену мыслями и взаимопониманию в обществе. Посредством языка накопленные человечеством знания фиксируются, сохраняются и передаются из поколения в поколение. Язык — зеркало духа нации. В языке воплощается ее сущность, мировоззрение, чувства, живейшая связь с ее родиной, мечты и чаяния. Каждое слово в языке, каждая его форма — результат развития интеллекта и чувств человека.

Общественную задачу язык может выполнять лишь в виде единой системы звуковых и словарно-грамматических средств. Основные компоненты языка: звук, слово, аффиксы, предложения, которые посредством грамматической мелодики и логического единства выражают решения обо всем сущем в мире, что-то утверждая или отрицая.

Язык — созданное человечеством общественное явление, развивающееся соответственно общественно-культурному прогрессу каждой нации.

**Задание 3.** Перепишите в тетрадь мудрые высказывания Алишера Навои о языке и слове. Перескажите своими словами их содержание, выучите их наизусть.

**Упражнение 2.** Прочитайте текст, используя выделенные слова, составьте предложения близкие по содержанию к тексту.

Kishilar bir-birlari bilan til orqali o‘zaro munosabatda bo‘ladilar, bir-birlariga **fikr** va istaklarini yetkazadilar.

Alisher Navoiy tilning faqat insonlarga xos hodisa ekanligini ta’kidlab:

*Insonni so‘z ayladi judo hayvondin,  
Bilkim **guhari sharifroq** yo‘q ondin, —  
deganlar.*

**Tafakkur** va til bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy hodisalardir. Inson nutqi bo‘lmasa, **til vositalari**

bo‘lmasa, fikrlash ham bo‘lmaydi. Tafakkur bo‘lmasa, til, nutqning ham bo‘lishi mumkin emas. Tafakkur va til bir-birisiz mavjud bo‘lmasa ham, ular aynan bir xil hodisa emas. Tafakkur **botiniy olamning** inson miyasida umumlashgan, til bilan ifodalananadigan **in’ikosidir**. Til esa fikrni ifodalash usuli, uni **qayd etish** va boshqa kishilarga, avlodlarga yetkazish vositasidir. Boshqacha aytganda, til tafakkurning borliq shakli bo‘lsa, tafakkur tilning **mazmunidir**.

Til milliy madaniyatning shakli sifatida tafakkurning harakati, uning faoliyati natijasida yaratilgan **ma’naviy boyliklarni** zamon va makonda abadiylashtiradi: ular doimo bir-birini taqozo qiladi, bir-birining yashashiga va rivojlanishiga yordam beradi.

**Задание 4.** Используя данные мысли, напишите творческое изложение о значении языка в процессе познания.

— Insonning borliqni anglash, yashash va ishlash jarayonida paydo bo‘lvuchi narsa, voqeа-hodisalarни aks ettiruvchi barcha tushuncha va tasavvurlari tilda o‘z ifodasini topadi.

— So‘z bilan tushuncha o‘rtasidagi birlik tafakkur jarayoni ning o‘ziga xos va ijtimoiy-tarixiy ong mahsulidir.

— Tushuncha borliqni anglash, aks ettirishning shunday shakliki, u narsa va uning xossalari haqida ma’lumot berib, hamma vaqt so‘zda ifodalanadi.

— Inson tafakkuri uning tili bilan birga takomillashib boradi.



Мышление свойственно только человеку и существует во взаимосвязи с трудом и речью. Человеческая мысль при ее формировании и передаче (выражении) воплощается в слове и фиксируется языком. Следовательно, результатом процесса мышления становится какая-либо мысль, которая проявляется лишь посредством языка в качестве понятия, решения или обобщения. Являясь непосредственно связанным с мышлением, язык, реализуя мысль, служит орудием общения, способствующим обмену мыслями.

**Упражнение 3.** Перепишите предложения. Объясните смысл предложений о нации, языке, родном языке.

1. Nechunki har bir insonning jonidan aziz narsasi din va millatidir. Ul din va millatning muhofazati ham har afrod insonga vojibdur. Oni (millatni) muhofazati ona tilining muhofazati bilan bo‘lur. Qachonki bir millat tilini yo‘qotsa, u muqaddas dinini va millatini ham yo‘qotur (*A. Зохурий*). 2. Bolobardan bizga meros ezgu til, avlodlarga xazinayi bebahо (*Mуртемир*). 3. Til millatning birinchi haqidir. Shu haq o‘ksitilgan bo‘lsa, demak, millat o‘zini-o‘zi o‘ksitib kelgandir (*И. Гафуров*). 4. O‘z vataningga bo‘lgan chinakam muhabbatining o‘z tilingga bo‘lgan muhabbatingsiz tasavvur etish mumkin emas (*K. Паустовский*). 5. Til g‘oya, tuyg‘u va tafakkurning jonli mujassamidir (*A. Толстой*).

**Задание 5.** Прочитайте текст. Дополните его сведениями о прогрессе узбекского языка.

O‘zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi Qonuni 1989-yil 21-oktabrda qabul qilindi. Mustaqillik sharofatini bilan o‘zbek tili — davlat tiliga e’tibor kuchaydi va ona tilimizning ijtimoiy mavqeyi kengaydi. O‘zbek tilining taraqqiyoti va istiqboli to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilinib, bir qancha qarorlar qabul qilindi. 1995-yilning 21-dekabrida O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi «Davlat tili haqida»gi Qonuni e’lon qilindi. Bu qonun 24 moddadan iborat bo‘lib, uning birinchi moddasida asosiy qonunimiz bo‘lgan Konsitutsiyamizning to‘rtinchi moddasida yozilganidek, «O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili — o‘zbek tilidir» deb yozib qo‘yilgan.

O‘zbek tilida to‘g‘ri, ifodali so‘zlash va yozish, ona tilimizning sofligi va boyligi to‘g‘risida tinmay g‘amxo‘rlik qilish, uning iste’mol doirasini kengaytirib borish davlatimiz fuqarolarining burchi sanaladi. Xususan, har bir yosh, o‘quvchi va talaba ona tilidagi so‘z boyligini oshirish hamda til imkoniyatlaridan o‘rinli foydalanishga doimo harakat qilishi foydalidir. So‘z — fikrning quroolidir, kishi qanchalik ko‘p so‘z bilsa, uning fikrlash doirasi, dunyoqarashi ham shunchalik keng bo‘ladi.

**Задание 6.** Напишите пословицы и поговорки о языке. На основе их содержания напишите краткое сочинение на тему: «Внимание языку — внимание народу» («Tilga e'tibor — elga e'tibor»).

**Упражнение 4.** Прочитайте предложения, выпишите их в той последовательности, которая соответствует развитию языка и письменности.

1. VIII asrda O'rta Osiyoda islom dini bilan birga arab yozuvi ham tarqaldi. O'zbek xalqi bu yozuvdagi 28 harfga yana qo'shimcha to'rtta harf kiritib, o'z tiliga moslashtirdi. 2. 1940-yil 8-mayda O'zbekiston Respublikasi hukumatining qarori bilan kirill yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosi qabul qilindi. Ushbu alifbo asosida «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari» 1956-yil 4-aprelda tasdiqlangan edi. 3. 1993-yil 2-sentabrda «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'-risida» Qonun qabul qilinishi mustaqil Vatanimizning ma'naviy-madaniy hayotida jahonshumul ahamiyat kasb etdi. Yangi alifboga kiritilgan o'zgarishlar asosida «O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari» ishlab chiqildi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1995-yil 24-avgustda tasdiqlandi. 4. O'zbek yozuvi dastlab 1929-yilda lotin grafikasiga asoslangan alifboga ko'chirilgan edi. 5. Turkiy xalqlarning ko'plab beba yo'dgorliklari qadimgi turk va uyg'ur yozuvlarida bitilgan. O'rxun-Enasoy yozuvi harf (tovush) yozuvining ancha mukammal shakli bo'lib, har bir tovush uchun maxsus shakl qo'llangan. 6. O'rta Osiyo xalqlari eng qadimdan o'z yozuv madaniyatlariga ega bo'lganlar, harf (tovush) yozuvining eng qadimgi shakllari hisoblangan so'g'd va xorazm yozuvlaridan foydalanganlar. Bu yozuvlar oromiy alifbosi asosida yuzaga kelgan.



В Средней Азии пользовались следующими видами фонографической письменности:

- арамейской письменностью (III—I века до новой эры);
- согдийской письменностью (I—VI века новой эры);

- хорезмской письменностью (II—III века);
- орхон-енисейской письменностью (V—VIII века);
- уйгурской письменностью (начиная с VI—VII веков до XII века);
- арабской графикой (начиная с VII—VIII веков до 1929 года);
- узбекским алфавитом на латинице (в 1929—1940 годах);
- узбекским алфавитом на кириллице (начиная с 1940 года);
- узбекский алфавит на основе латинской графики (введен в сентябре 1996 года).

### **Задание 7.**

- a) охарактеризуйте дополнительные буквы, введенные в арабскую графику и кириллицу, исходя из особенностей узбекского языка;
- б) на основе данного текста составьте новый текст, отразив историю узбекского языка вплоть до сегодняшнего дня, когда он принят как официальный государственный язык.

Qadimdan har bir qabila, elat o‘z yozuvini muqaddas deb bilgan, o‘z tilini ulug‘lab kelgan. Ajdodlarimiz oromiy, so‘g‘d, run, uyg‘ur, arab yozuvlaridan foydalanib, boy tarixiy, madaniy meros qoldirishgan. Qoraxoniylar hukmronligi davrida turkiy tilda davlat yozishmalari olib borilgan, uning maqomi mustahkamlangan. Qoraxoniylar podshohlar o‘z turkiy tillarini «hoqoniya tili» deb e’lon qilishgan. Buyuk tilshunos Mahmud Qoshg‘ariy bu tilni uchqur tulporga, adib Yusuf Xos Hojib tog‘ ohusiga qiyos qilishgan. Hazrat Alisher Navoiy turkiy tilni o‘n sakkiz ming olamdan ham oliy olamga o‘xshatganlar.

#### **Вопросы и задания:**

1. Какие задачи выполняет язык в обществе?
2. Обоснуйте значение языка в осознании мира и получении знаний.
3. Какие различия существуют между языком и речью?
4. На какие основы опирается развитие узбекского языка?

## ПРАВОПИСАНИЕ ПИСЬМЕННОЙ РЕЧИ И ОСНОВЫ КУЛЬТУРЫ РЕЧИ

- ◆ Письменная речь.
- ◆ Правила орфографии.
- ◆ Культура речи.
- ◆ Этика речи.
- ◆ Основы овладения культурой речи.

**Задание 8.** Прочитайте текст, выделите слова и термины, раскрывающие сущность письменной речи, поясните их смысл.

Tilning ijtimoiy vazifasi nutqiy faoliyatda, ya’ni nutq sifatida kishilar o’rtasida aloqa, fikrlashish, so’zlashishni amalga oshirishda yaqqol ko’rinadi. Nutq faoliyati kishilarning birlariga tushunarli bo’lgan til vositasida o’zaro fikr almashtislari, nutqiy aloqaga kirishishlaridir. Bu jarayon ikki shaklda amalga oshadi: og’zaki tarzda va yozma tarzda.

Yozma nutq og’zaki nutqdan so’ng yozuv ta’sirida paydo bo’lgan bo’lib, adabiy tilning imloviy, punktuatsion, uslubiy qonun-qoidalariga bo’ysunuvchi grafik shakldagi nutqdir. Yozma nutqning mazmuniy bo’laklari, gaplar, ularning qismlari turli xil tinish belgilari orqali ajratib ko’rsatiladi. Yozma nutq og’zaki nutq kabi kishilar o’rtasidagi bevosita aloqa vositasi emas, balki u boshqa joyda va zamonda (kelgusi davrda) yashovchi kishilar bilan aloqa bog’lash vositasidir. Yozma manbalar orqali biz o’tmisht tariximizni o’rganamiz va bundan kelajak avlod foydalanishini ta’minlaymiz.

Yozma nutq doirasiga ilmiy nutq, badiiy nutq, shuningdek, hujjatlar, ommaviy axborot vositalari uchun tuzilgan yozma matnlar kiradi. Yozma nutq savodxonligi har bir kishidan o’z fikr-qarashlarini tilning imloviy-grammatik qoidalariga, adabiy til me’yorlariga rioya qilgan tarzda ifodalashni talab qiladi.

**Упражнение 5.** Прочитайте предложения. Перепишите термины, относящиеся к письменной речи, разъясните их словарный смысл.

1. Yozma adabiy tilning madaniyligi, adabiy me'yorlari alifbo va imlo qoidalarining mukammal va puxtaligiga ham bog'liq.
2. Yozma matnning mazmuni, ma'no qirralari, sintaktik va grammatik munosabatlarini aniqlashda tinish belgilari muhim o'rinn tutadi.
3. Mustaqim Mirzayev fidoyi tilshunos sifatida har kuni ikki-uch soatlik ish vaqtini gazeta va jurnallar tilini o'rganish, ulardagi adabiy me'yor buzilishlarini aniqlash, bunday xatolarni guruhlash va bartaraf etish choralar bo'yicha tavsiya yozishga sarflar, bu ishdan hech erinmas edi.
4. Nutq madaniyatining saviyasi tilning talaffuz va imlo, grammatik, leksik va uslubiy me'yorlaridan to'g'ri foydalana bilish darajasi bilan belgilanadi.
5. Fikrdagi qusur so'zdagi xatolarni vujudga keltiradi, so'zdagi kemtiklar esa ishdagi xatolarni keltirib chiqadi (*Д. Писарев*).
6. Qalam — eng yaxshi muallim, qalamdan chiqqan nutq hozirgina o'ylanganidan ko'r yaxshiroqdir (*Цицерон*).
7. Daryodagi gavhar o'z jilvasini g'avvos tufayli namoyish qilganiday, til ham o'z qudrati va nafosatini nutq ahli vositasida zuhur etadi (*A. Навои*).



Правила правописания разрабатываются языковедами и обсуждаются общественностью. Правила орфографии утверждаются со стороны правительства. Люди обязаны соблюдать правила орфографии во всех сферах деятельности, связанных с языком: во взаимной переписке, официальном делопроизводстве, в процессе обучения, культурно-просветительской работе и т.д. Несоблюдение норм орфографии при написании слов и аффиксов может привести к разночтению, в результате которого может возникнуть взаимное непонимание. Поэтому при изучении любого языка, в том числе узбекского, правила орфографии следует освоить по всем разделам правописания. В утвержденных 24 августа 1995 года «Основных правилах орфографии узбекского языка» имеются следующие разделы: «Орфография

букв», «Орфография основ и дополнений», «Слитное написание», «Написание через черточку», «Раздельное написание», «Орфография прописных букв» и «Правила переноса» («Harflar imlosi», «Asos va qo'shimchalar imlosi», «Qo'shib yozish», «Chiziqcha bilan yozish», «Ajratib yozish», «Bosh harflar imlosi» va «Ko'chirish qoidalari»).

**Задание 9.** Составьте текст, изложив свое мнение относительно того, как можно достичь грамотности в письменной речи.

**Задание 10.** Прочитайте текст, прокомментируйте предложения, характеризующие культуру речи.

Ey farzand, agar sen har qanday notiq bo'lsang ham, o'zingni bilganlardan pastroq tutgin, toki so'z bilimdonligi vaqtida bekor bo'lib qolmagaysan...

Odamlar to'rt xil bo'lganidek, so'z ham to'rt xil bo'lgay: biri, bilinmayturg'on va aytilmayturg'on, ya'ni aytishga zaruratsiz bo'lgan so'zlar; ikkinchisi, aytilaturg'on va bilinaturg'on; bunday so'zlarga ibratomuz va aytса bo'ladigan so'zlarni kiritish mumkin. Masalan, odob-axloq, nasihat tarzida aytilgan so'zlar; uchinchisi, ham bilinaturg'on va ham bilishga zaruratsiz, ammo aytса bo'laturg'on; to'rtinchisi, bilinaturg'on va aytilmayturg'on. Ammo aytilmayturg'on va bilinmayturg'on unday so'zdurki, ... dunyoning salohi unga bog'liqdir. U1 so'zdin aytguvchiga ham, eshitguvchiga ham ko'p naf yetar...

Kishining martabasini so'zi bilan bilurlar, ammo so'zning martabasini kishi bilan bilmalar, chunki har kishining ahvoli undan chiqadigan so'zning ostiga yashiringandir, ya'ni bir so'zni bir ibora bilan aytilsa, eshitgan odamning ko'ngli undan xijolat tortgay va yana o'sha so'zni bir ibora bilan aytsa, eshitgan odamning joni undan rohatlanadi.

*Кайкаус, из книги «Кабуснаме»*



Культурная речь — это речь, составленная при помощи всех имеющихся языковых средств, использованных по возможности верно, умело и целенап-

равленно. А культура речи — это отношение к использованию языка, являющегося орудием общества. И чем хуже и бесцеремонней отношение к этому редкому бесценному орудию, тем ниже уровень культуры речи, и, наоборот, чем уважительнее отношение к нему, тем лучше культура речи и взаимоотношений.

Уровень культуры речи зависит от отношения говорящего или пишущего к языковым средствам. Чем благоприятнее факторы, способствующие правильному их использованию — развитость мышления, располагающая культурная среда, ситуация, сложность поставленной цели — тем она выше. В случае противоположном этому наблюдается очень низкий уровень культуры речи.

Культура речи связана с умением: составлять ясную, понятную, выразительную речь в зависимости от речевой ситуации; грамотно ее формулировать, используя выразительные средства языка, формирующие ее содержание и стиль.

**Упражнение 6.** Прочитайте стихотворные строчки о культуре речи, изложите их содержание своими словами. Поясните смысл выделенных слов.

So‘zni ko‘p so‘zlamay, sizlab ayt, oz-oz,  
Tuman **so‘z tugunin** shu bir so‘zda yoz.

\* \* \*

Kishi so‘z tufayli bo‘ladi **malik**,  
Ortiq so‘z bu boshni etadi egik.

*Юсуф Ходжисб*

\* \* \*

**O‘chukturma** erni tilin, bil, bu til  
Bashaqtursa, butmas, butar o‘q boshi.

\* \* \*

Nekim kelsa erga tilitin kelur,  
Bu tiltin kim **ezgu**, kim oqir bo‘lur.

*Ахмад Югнаки*

\* \* \*

**So‘zchi** holin boqma, boq so‘z holini,  
Ko‘rma kim der ani, ko‘rgilkim, ne der.

\* \* \*

Kim oz dedi nuqta aysh-u kom o‘ldi anga,  
So‘z **qoidasida** intizom o‘ldi anga.

\* \* \*

Har kimki **chuchuk** so‘z elga izhor aylar.  
Har nechaki **ag‘yor** durur yor aylar.  
So‘z qatig‘i el ko‘nglig‘a ozor aylar,  
**Yumshog‘i** ko‘ngullarni giriftor aylar.

*Алишер Навои*

\* \* \*

Bor so‘zni so‘z sanab tebranmasin til,  
Ko‘rib, o‘ylab so‘zla, keragini bil.

*Суфи Аллаяр*

**Задание 11.** Напишите в тетради известные вам пословицы и поговорки об этике речи, разъясните содержание последних двух из них.

1. Yaxshi so‘zlashga o‘rgan va muloyim so‘zlashdan boshqa narsani odat qilma, negaki, qanday so‘zni gapirishni istasang, til shuni gapiradi. *Кайкаус*

2. So‘zi hisobsiz – o‘zi hisobsiz.

3. Chin so‘z – mo‘tabar, yaxshi so‘z – muxtasar.

4. Takallum bila kimsa inson erur,

So‘zi yo‘q bahoyimg‘a ne son erur. *Алишер Навои*



Наши предки издревле стремились говорить правильно, красиво, образно, впечатляюще, и, превращая это в норму языка, особое внимание обращали на просветительско-этические стороны языка. Бережное отношение к слову, умение говорить с пониманием, красиво, вдумчиво, правдиво, немножко словно, избегая вульгарных слов, соблюдение этики и хорошего тона в беседе, умение хранить доверенные тайны и ряд других требований всегда являлись основой культуры речи. Эти нормы язы-

кового общения стали своеобразной традицией нашего народа и развиваются по сей день.

Овладение культурой речи зависит в первую очередь от освоения современного узбекского языка и его выразительных средств, следования нормам литературного языка и другим социально-духовным факторам. Кроме того, при разговоре необходимо соблюдать нравственно-этические нормы. Надо со вниманием относиться к своей и чужой речи, к месту произносить слова, уметь не только говорить, но и слушать, а также последовательно вести беседу и культурно полемизировать.

**Упражнение 7.** Прочитайте слова. Перепишите пословицы и поговорки о культуре речи, объясните их содержание.

1. O‘zbek xalqi: «O‘ynab gapirsang ham, o‘ylab gapir», deb nutqqa nisbatan jiddiy munosabatda bo‘lishni xush ko‘radi.
2. Abu Nasr Forobiy aql va mantiq ilmiga alohida e’tibor bergen, shuningdek, mantiq bilan grammatikaning o‘zaro bog‘liqligini quyidagicha ta’kidlagan: «Mantiqning aqlga munosabati grammatikaning tilga munosabati kabitdir. Grammatika odamlar nutqini tarbiyalagani singari mantiq ilmi ham tafakkurni haqiqiy yo‘ldan olib borish uchun aqlni to‘g‘rilab turadi»
3. O‘rta Osiyo xalqlarida notiqlik san’ati — «voizlik», notiq — «voiz», nutq — «va’z» atamalari bilan nomlangan.
4. Alisher Navoiy nutq va unga amal qilish haqida quyidagilarni ta’kidlaydi: «Va’z bir mursqid va ogoh ishidir va aning nasihatini qabul etgan maqbul kishidur. Avval bir yo‘ldan bormoq kerak, andin so‘ngra elni boshqarmoq kerak. Yo‘lni yurmay kirgan itar va g‘ayrimaqsud yerga yetar».

**Вопросы и задания:**

1. Какова роль письменной речи в деле самосовершенствования?
2. Объясните, в чем проявляется грамотность речи?
3. Как вы соблюдаете культуру речи в разных ситуациях?
4. В чем разница между понятиями «культура речи» и «ораторское искусство»?
5. Как можно овладеть ораторским искусством? Что вы по этому поводу думаете?

## СВОЙСТВА КУЛЬТУРЫ РЕЧИ

- ◆ Правильность речи.
- ◆ Точность речи.
- ◆ Логичность речи.
- ◆ Чистота речи.
- ◆ Богатство речи.
- ◆ Толковость (понятность) речи.
- ◆ Выразительность речи.



**Культура речи** — это совокупность знаний и практических навыков, которые обеспечивают выразительность и образность языка и способствуют достижению поставленной задачи, это также умение выбирать для выражения определенной мысли нужные слова и строить предложения, исходя из возможностей языка, и на основе этого составлять красивую речь.

Культура, то есть правильность, точность, логичность, содержательность, стилистическое разнообразие и чистота речи основываются на ряде коммуникативных свойств. Эти свойства речи наряду с обеспечением речевой связи, усиливают ее воздействие на слушателя.

### Правильность речи

Речь считается правильной, если она построена в строгом соответствии с нормами литературного языка (произношение, строение слова, лексический, морфологический, синтаксический строй). Правильность речи основывается на соблюдении следующих требований:

- правильное и выразительное произношение словосочетаний, обращение внимания на слова, логическую связность, ударение и паузы;
- правильный выбор слов, терминов и словосочетаний для полного выражения излагаемой мысли, то есть уместность их применения;
- учет идеологического, мировоззренческого, культурного уровней подготовки слушателей в использовании варианты и синонимов слова;
- правильное использование окончаний, учет многовариантности морфологических форм (конфигураций), исключение их частого повторения;
- соблюдение правил сочетаемости слов между собой, правильное построение предложения с грамматической точки зрения;
- написание и произношение слов с соблюдением правил орфографии и орфоэпии и т.д.

**Упражнение 8.** Перепишите и объясните значение подчеркнутых слов.

1. So‘zni **to‘g‘ri** yozishni o‘rgan. — U — **to‘g‘ri** odam.
2. Usta **o‘tkir** asbob bilan simni qirqdi. — **O‘tkir** zehnli bola.
3. **Bo‘s**h o‘ringa o‘tiring. — Uning **ko‘ngli bo‘s**h. — **Bo‘s**h idish bormi?
4. Bizga **toza** suv kerak. — **Ko‘ngli toza** kishining do‘sti ko‘p bo‘ladi.
5. Eshik **ochiq**. — Mehmonni **ochiq chehra bilan** kutib ol. — U **ochiq**, samimi yigit.
6. O‘g‘lingiz **katta** yigit bo‘libdi. — Bu bola katta ketyapti, mashina olaman, deydi.
7. Tashabbus — **katta** gap.
8. Qopni **teskarisiga** ag‘dardi. — Bu yo‘l menga **teskari**.
9. Ombor mudiri **to‘nini darrov teskari** kiyib oldi.

**Задание 12.** Выразительно прочитайте текст и выучите 2-ю часть стихотворения.

I. Vodiyarni yayov kezganda,  
Bir ajib his bor edi menda...  
Chor atrofga yoyganda gilam,  
Aslo yo‘qdir bundayin ko‘klam...  
Bu o‘lkada har narsa bordir,

Ko‘rmaganlar doim xumordir...  
Arg‘umoqlar qo‘srig‘i bordir,  
Bu shundayin ajib diyordir.  
O‘xhashi yo‘q bu go‘zal bo‘ston,  
Dostonlarda bitgan guliston,  
O‘zbekiston deya atalur,  
Uni sevib el tilga olur.  
Chiroylidir go‘yo yosh kelin,  
Ikki daryo yuvar kokilin...

II. Bir o‘lkaki, husnga boydir,  
Uning eng zo‘r ko‘zgusi oydir.  
Bu shundayin ajib diyordir,  
Buning qiziq hikmati bordir.  
Shuning uchun tinchdir ul ko‘ngil,  
Shuning uchun osoyishdir ul...  
Yovlariga osmon tutundir,  
Shuning uchun bag‘ri butundir,  
Shuning uchun yopinmagay xas,  
Shuning uchun kiyinar atlas.  
Shunday o‘lka doim bor bo‘lsin,  
Shunday o‘lka elga yor bo‘lsin.

(H. Olimjon)



### Точность речи

**Точность речи** — это использование слов в полном соответствии с их значением в языке, точное определение предмета или события, выражаемое словом. Точность речи определяется следующими критериями:

- точность называния вещей и событий, соответствие обозначающего слова тому понятию, которое оно обозначает;
- правильность выбора синонимов и многозначных слов и их правильное использование в речи;
- оправданность употребления устаревших слов и выражений, знание их смысла, написания и произношения;
- правильность использования паронимов сообразно с их смыслом;

- точность применения профессиональных слов и терминов в нужном месте;
- четкость разграничения смысловых оттенков слов и словосочетаний и т. п.

**Упражнение 9.** Прочитайте текст и выполните послетекстовые задания.

## BUYUK INSONPARVAR SHOIR

Alisher Navoiy – o‘zbek xalqining buyuk shoiri, o‘zbek tili va adabiyotining asoschisidir. U o‘zining o‘lmas va go‘zal asarlari bilan butun dunyoga tanilgan.

Alisher 1441-yil 9-fevralda Hirot shahrida tug‘ilgan. U yoshligida juda ziyrak va zehni o‘tkir bola bo‘lib, 4–5 yoshga kirganda o‘qish-yozishni o‘rganib olgan.

Alisherning otasi G‘iyosiddin ilm, san’atning qadrini biluvchi kishi edi. Shuning uchun o‘g‘lining yaxshi tarbiya olishiga, ma‘lumotli bo‘lishiga zo‘r ahamiyat berdi va bu yo‘lda hech narsani ayamadi.

Yosh Alisher 1456-yilda Xuroson podshosi Abulqosim Boburning xizmatiga kirdi. Bu kishi san’at va adabiyotni sevar edi. Bu podsho yosh shoirga alohida homiylik qildi. Alisher shu yillarda zamonasining shoirlari orasida tanila boshladi.

U ko‘proq o‘zbekcha she’rlar yozishga ahamiyat berdi, fors tilida oz yozar edi. U o‘zbekcha she’rlariga «Navoiy», forscha she’rlariga «Foni» deb imzo qo‘yar edi.

Alisher yoshligida shahzoda Husayn Boyqaro bilan birga ta‘lim olib, u bilan yaqindan tanishgan edi. Husayn Boyqaro taxtga o‘tirishi bilan Alisherni o‘ziga vazir qilib oldi.

Buyuk olim va shoir Alisher Navoiy o‘zining o‘lmas asarlari bilan butun dunyoda mashhurdir. U umrining oxiriga qadar ijodiy ish bilan shug‘ullandi, o‘zining buyuk asarlarida kishilikning eng yaxshi sifatlarini maqtab, odamlarni shunday sifatlarga ega bo‘lishga undadi.

Alisher ko‘pchilik asarlarini o‘z tilida, ya’ni o‘zbek tilida yozib, bu tilning boy madaniy til ekanligini isbot qildi.

Navoiy juda ko‘p go‘zal asarlar yozdi. Shulardan eng kattasi «Chor devon» deb atalgan to‘rtta g‘azallar to‘plami va beshta yirik dostonidan iborat «Xamsa»dir.

Buyuk shoir va olim 1501-yil 12-yanvarda Hirot shahrida vafot etdi.

a) matndagi notanish so‘zlarni lug‘at yordamida tarjima qiling. — Переведите неизвестные слова из текста с помощью словаря.

b) ayting-chi, qanday joylar Alisher Navoiy nomi bilan ataladi? — Скажите, какие места названы именем Алишера Навои.

d) matndagi so‘zlarning kelishik qo‘sishimchalarini va ular anglatgan ma’nolarni quyidagi jadvalga yozing — составьте таблицу падежных аффиксов на основе слов из текста и укажите их значения.

**Задание 13.** Прочитайте текст и переведите его на русский язык.

O‘rta Osiyodagi eng birinchi nashriyot 1868-yili Toshkentda harbiy okrug shtabida ochilgan.

Shu yili ushbu nashriyot mashhur olim va sayohatchi N. A. Sevesevning «Cho‘qqidagi Chu va Norin tog‘ o‘lkasi va undan Turkistonga o‘tish yo‘llari» nomli kitobini rus tilida chop etgan. Bu O‘rta Osiyo nashriyotlari tarixida bosmadan chiqqan eng birinchi kitob hisoblanadi.

O‘zbek tilidagi dastlabki kitob esa Toshkentda 1871-yilning boshlarida chop etilgan. U «1871-yilning taqvimi» deb nomlangan.

Eng birinchi o‘zbek tilidagi kitobning muallifi «Turkiston viloyatining gazetasi» ro‘znomasining xodimi tarjimon Shohimardon Ibrohimov bo‘lgan.



### Логичность речи

**Логичность речи** — это соответствие смысловых связей слов и предложений самой сути, содержанию излагаемой мысли.

Логичность речи определяется следующими критериями:

- знание и соблюдение правил и норм логического мышления;
- связанность одной мысли с другой и посредством этого обеспечение последовательности в изложении мыслей;

- отсутствие смысловых неувязок и противоречий;
- убедительность обоснования точек зрения, оценок и выводов аргументами и фактами;
- учет духовно-смысловой сути слов, своеобразия и порядка их соединения в предложении, соответствие выбранных лексики и стилистики излагающей идеей;
- отсутствие (не использование) логически не соответствующих и не связанных между собой слов и понятий и т. д.

**Задание 14.** Прочитайте тексты о жизни Аль-Фараби и перескажите их содержание. Определите с помощью каких средств обеспечивается логичность речи.

### KUY SEHRI

I. Kunlardan bir kun Forobiy amir saroyiga boribdi. U yerga hakimlar, olimlar, san'atkorlar to‘planishgan ekan. Qipchoqcha kiyingan Forobiy e‘tiborsizgina bir chekkaga borib o‘tiribdi. U o‘zi yasagan do‘mbira bilan bir kuy chalgan ekan, o‘tirganlar xoxolab kulishib, o‘yinga tushib ketishibdi, ikkinchi kuyni chalganda, ular yig‘lay boshlashibdi, yana bir kuyni chalgan ekan, behush bo‘lib uxbab qolishibdi. Ustoz «Bu kuylarni chalgan qipchoq al-Forobiy» deb xat yozibdi-da, o‘zi saroydan chiqib ketibdi.

Amir uni keyin qancha qidirsa ham topolmabdi.

### YETMISH TIL SOHIBI

II. Shom shahrining amiri o‘z huzuriga olim, shoirlarni to‘plabdi. Ul al-Forobiyni sinamoq bo‘lib: «O‘z joyingni topib o‘tir», — debdi. Al-Forobiy to‘g‘ri amir taxtiga borib o‘tiribdi. Shunda amir vaziriga notanish tilda:

- Bu turk odob saqlashni bilmas ekan, — debdi.  
Notanish tilni ham biladigan al-Forobiy:  
— Taqsir, men yetmish tilni bilaman, — debdi.
- Noqulay vaziyatda qolgan amir va xalifalar: «Kechiringlar, sizning ikkinchi ustoz ekaningizni bilmabmiz», — deb unga tan berishgan.

**Упражнение 10.** Перепишите текст, прокомментируйте логическую последовательность предложений.  
Текст переведите на русский язык.

## FARZAND BURCHI

Bizni o‘z boshiga ko‘tarib turgan yerni – ona Yer, ona zamin deydilar. Darhaqiqat, u – borliqning onasi!

Rivoyatlarga ko‘ra, bizlarni, aqlli mayjudot bo‘lgan insonlarni ona-Yerdan yaratishgan. Shuning uchun Yer insonni boqadi, yediradi, ichiradi, kiyintiradi. Uning kamoloti uchun hamma narsani muhayyo qiladi. «Mana senga» deb bag‘rida yetishgan narsalarni bizga in’om qiladi. Bizning butun hayotimiz uning bag‘rida kechadi. Inson yuz yil yoki undan ko‘proq yashasa ham mehribon ona-Yer bag‘riga boradi. Shunday ekan, biz ham uni onadek e’zozlashimiz kerak.

Afsuski, biz insonlar ona zamin oldidagi o‘z farzandlik burchimizni ado etmayapmiz, zaharlayapmiz. Siz va biz ana shu zaharlangan yerda ungan tabiat mevalaridan iste’mol qilamiz-ku!

Odamlar, yerni zaharlamang! Yer bizning ona tuproq, ona zamin! Hammamiz ona Yer uchun kelajak avlod oldida javobgarmiz.

Do‘srim, sen ona Yer oldidagi farzandlik burchingni qanday bajaryapsan?



### Чистота речи

**Чистота речи** обеспечивается подчинением говорящего речевым нормам литературного языка и духовно-нравственным правилам общества.

Чистота речи достигается соблюдением следующих условий:

- исключение из речи присущих различным диалектам слов, выражений, неправильных аффиксов, ударений и произношении;
- обоснованное использование иностранных слов и словосочетаний;
- отказ от использования жаргонных выражений, бранных, грубых слов и слов-паразитов;

— исключение из речевого обихода слов и словосочетаний, типичных для канцелярской переписки и т.д.

**Задание 15.** Прочитайте текст и найдите в нем слова, которые засоряют речь.

Tashqarida ot kishnadi. Darvozadan Umar zakunchi kirib keldi. Boshida chaqmoq telpak, egnida ixcham pocha-po'stin, qo'lida qamchi.

— Hormanglar-ov! — dedi tetik ohangda. — Nastrayena zo'r-ku! Demak ish besh!

Raisning hurmati uchun o'rnimizdan turdik. Parcha, Bashor opaning boyagi niyati esidan chiqmagan ekan shekilli, qaylig'idan uyalgan kelinchakdek ombor burchagiga lapanglab qochdi. Bashor opa o'rnidan turmasa ham bir qo'zg'alib qo'ydi.

— Iye, siz ham hasharga keldingizmi? — dedi Zakunchi unga qarab, — MTS nima qiladi sизsiz?

— Men-ku, hasharga doim kelaman! — Bashor opa uning ko'ziga tik qarab ta'kidladi. — Sizlar ham hashar qilmasanglar bo'lmaydi. Menga ikkita yordamchi kerak.

— Bilmadim! — Umar zakunchi yuzini o'girdi. — Zakun bo'yicha MTS mustaqil tashkilot.

— Mustaqil bo'lgani bilan traktor kolxozning yerini haydaydimi? — dedi Bashor opa keskinlik bilan.

— Bilmadim! — Zakunchi tez-tez yurib nari ketdi.

— Tezroq qimirlanglar! — dedi darvoza oldida to'xtab. — Ertaga frontga bir vagon piyoz jo'namatimiz. Tashqarida ot tuyoqlarining qorga bo'g'iq urilib dukillashi eshitildi.

— E, o'l, zakun-pakuning bilan! — dedi Bashor opa ensasi qotib. — Traktorni tomorqamga oborib ishlayapmanmi, olifta-quruq!



### Богатство речи

Чем солиднее словарный запас, чем правильнее, выразительнее и занимательнее речь с мастерским владением разнообразными элементами и возможностями языка, тем **богаче речь**.

Для достижения богатства речи соблюдаются следующие правила:

- нужно избегать однотипности фраз при выражении мысли;
- иметь достаточный словарный запас, знать различные значения слова, модели предложений, владеть речевыми интонациями и умением применять их;
- для выражения одной и той же мысли или понятия подбирать различные слова, построение предложений и интонации;
- не повторять языковые единицы (избегать косноязычия), чаще использовать лексические, морфологические и синтаксические синонимы и т.д.

**Упражнение 11.** Прочтите предложения. Прокомментируйте роль и место выделенных слов. Укажите на первичность или вторичность их значения.

— Xolajon, kattaroq cho‘zmasangiz, sira yo‘l bermaymiz!  
— qichqirishdi yo‘l to‘suvchilar («*Qutlug‘ qon*»). Oyi, qarang, qizingiz qulog‘imizdan cho‘zyapti. Yo‘g‘on cho‘ziladi, ingichka uziladi (*Maqol*). Yigitlar yugurib chiqib, belbog‘laridan nari-beri arqon yasab, yo‘lni kesdilar («*Qutlug‘ qon*»). Kattalar gapirganda so‘zini kesma. Kes-kes arqonni, — qichqirishdi bolalar. Onasining dakkisidan bolaning ovozi kesildi. Soqolli kampir pulni hayajon bilan kissasiga urdi-da, Nurining yuzini ochdi («*Qutlug‘ qon*»). Bola qo‘qqisidan hujum qilgan itni tayoq bilan urdi. Voy azamat-ey, bitta tarvuzni bir o‘zi urdi-ya! Odamlar o‘zlarini avtobus eshigiga urdi.

**Упражнение 12.** Укажите, какие слова употреблены в переносном смысле в следующих выражениях.

*Qaynoq ko‘z yoshi, jo ‘shqin g‘ayrat, qora niyat, oq fotiha, chuqur o‘ylamoq, tor ma’no, qalb so‘zi.*

**Задание 16.** По «Толковому словарю узбекского языка» (М., 1981, Т. 1, 11) определите значения слов *bosh, bo‘y, etak*.

**Задание 17.** Перечитайте текст и переведите его на русский язык. Определите значения выделенных слов.

1874-yili Xiva xoni Muhammad Rahim II saroyida O‘rta Osiyodagi ilk litografiya tashkil etilgan. U o‘zbek tilidagi kitoblarни chop etishni **yo‘lga qo‘yan**. Bu yerda chop etilgan dastlabki kitob (1874-у.) «Devoni Munis» deb nomlangan.

Dunyoda eng yirik Ulug‘bek rasadxonasiдagi asosiy asbobning radiusi qirq metr-u to‘rt santimetр, yoyning uzunligi esa 42 metrdir. Teleskopli astronomiyagacha bo‘lgan davr tarixida bunday eng katta asbob bo‘lмаган.

Mashhur fransuz olimi Laplas Ulug‘bekni «**Eng buyuk kuzatuvchi**» deb atagan. Bu qadimgi rasmning ishlanganiga uch yuz yildan oshgan. Noma’lum bir rassom shipi gumbaz xonani va shipda — **yulduzli osmon** kartasi, astronomik asboblarни tasvirlagan. Stol yonida ulug‘ astronomlar: Ptolemy, Kopernik, Brage o‘tirishibdi... Eng **faxriy o‘rinda**, raisning o‘ng tomonida samarqandlik o‘zbek astronomi Ulug‘bek o‘tiribdi. Yevropalik rassom **eng faxrlı o‘rinni** buyuk olimiz Ulug‘bekka bergen.



### **Толковость (понятность и содержательность) речи**

Полное и внятное разъяснение чего-либо: предмета, явления, ситуации, цели посредством полностью соответствующих языковых средств, правильное их согласование и применение в соответствии с обстоятельствами считается **толковостью речи**.

Чтобы построить толковую речь, нужно выполнить следующие условия:

- строить речь с учетом возраста, социального происхождения и культурно-духовного уровня слушателя;
- обеспечить выбор языковых единиц сообразно с темой (предметом) речи, с ее (его) логическим и чувственным содержанием;
- отбирать языковые средства в соответствии с выбранным стилем изложения;
- умение различать использование слов, грамматических форм и построение предложений в устной и письменной речи;

— достичь гармоничности (соответствия) художественной картины, выразительности интонации с логикой мысли, с чувственно-духовным (психологическим) состоянием слушателя и т.д.

**Задание 18.** Прочитайте текст и перескажите его содержание. Найдите сложные и парные существительные, определите, из каких слов они образованы.

## BILASIZMI?

Xiva Markaziy Osiyodagi yagona muzey-shahar hisoblanadi. Xivaning arxitektura qiyofasi, asosan, 18-asrning oxiridan 20-asrning boshlarigacha shakllangan. Ansamblning yaxlitligi jihatidan Xiva O‘rtal Osiyoda yagona hisoblanadi. Unda eng qadimiy (14-asr) yodgorligi Sayid Aloviddin maqbarasi, eng muhim obidalari Ko‘hna ark, Juma masjid, Oq masjid, Uch avliyo maqbarasi, Sherg‘ozixon madrasasi, 163 xonadan iborat Tosh hovli saroyi, Islom xo‘ja minorasi, Kalta minor, 94-masjid va 63 ta madrasa qayd etilgan. Xiva shahri hozir 2500 yoshda.

Buxorodagi Ko‘h Ismoil Somoni maqbarasi taxminan 892–907-yillarda Somoniylar sulolasining vakili Ismoil Somoni yomonidan to‘rtburchak shaklida bunyod etilgan. Har burchagida bittadan kichik gumbaz, o‘rtasida esa eng asosiy katta gumbaz joylashgan. Maqbara devorlari ichkari-tashqarisidan bo‘rtiq-bo‘rtiq shakllar o‘ziga xos badiiy bezak sifatida ko‘zga tashlanadi. Kunning turli vaqtlarida, quyosh nurlari ta’sirida ular rang-barang ko‘rinish kasb etadi. Bu hol, ayniqsa, kechasi oy shu’lasidan yaqqol seziladi. Bunday uslub dunyo me’mor-chilining bironta yodgorliklarida uchramaydi.



### Выразительность речи

Насыщенность речи выразительными словами, словосочетаниями и выражениями, умение привлекать внимание слушателя с помощью художественно-изобразительных средств считается выразительностью речи.

Выразительность и хорошее впечатление от речи достигается выполнением следующих правил:

- при произношении слов необходимо четко артикулировать гласные и особенно удвоенные согласные, повторять слова, разделять их на слоги, правильно ставить ударения;
- изменять темп речи, громкость и высоту звуков, интонацию;
- умело использовать фразеологические выражения, пословицы, поговорки и изречения;
- применение и формирование метафор, определений и слов с переносным смыслом.

**Задание 19.** Прочитайте текст и расскажите, какие слова использовал автор для большей выразительности.

Ablulla Qahhorning ish kunlari ertalab soat sakkizdan boshlanardi. Nonushta qilib bo‘lgach, stolga o‘tirar, shundan to soat o‘n ikkigacha o‘rinlaridan turmas edilar. Bu vaqt ichida hech kim u kishini bezovta qila olmas, o‘zлari ham kabinetga hech kimni qo‘ymas edilar. Juda muhim odam bo‘lsa, telefon yonidagi tugmachani bosardim, shunda u kishi telefon go‘shagini ko‘tarar edilar.

Abdulla Qahhor birovga yozadigan maktubni ham avval qo‘lda yozib, keyin mashinkada ko‘chirardilar. Har kuni ko‘pi bilan bir yarim-ikki sahifa yozardilar. Bir yarim-ikki sahifani yozish uchun to‘rt-besh soat o‘tirardilar. Ba’zi sahifalar o‘n-o‘n besh, ba’zida esa o‘n olti-o‘n to‘qqiz martadan qayta yozilar edi. Mabodo sahifaning oxirida biror so‘zni o‘zgartirish lozim bo‘lsa, o‘sha sahifani butunlay qaytadan yozib chiqardilar.

(K. Kaxxarova. «Chorak asr hamnafas»)

**Упражнение 13.** Прочитайте и объясните значения выделенных слов.

«**Beshikdan** qabrgacha ilm izla» deganlar donishmandlar. O‘rta Osiyo insoniyatning madaniyat **beshiklaridan** biri bo‘lgan. Ammangning makri **qilni qirq yoradi** (*Hamza*). Mexanik **arralar** ish unumini juda oshiradi. Randa bo‘lma, tesha bo‘lma, **arra** bo‘l (*Maqol*). Endi topganimizni **arra qilamiz** (*Ertak*).

**Задание 20.** Прочитайте стихотворение и перескажите его содержание своими словами.

## O'RIK GULLAGANDA

Derazamning oldida bir tup  
O'rik oppoq bo'lib gulladi...

Novdalarni bezab g'unchalar  
Tongda aytdi hayot otini,  
Va shabboda qurg'ur ilk sahar  
Olib ketdi gulning totini.

Har bahorda shu bo'lar takror,  
Har bahor ham shunday o'tadi.  
Qancha tirishsam ham u beor  
Yellar meni aldab ketadi.

Mayli, deyman va qilmayman g'ash,  
Xayolimni gulga o'rayman.  
Har bahorga chiqqanda yakkash,  
Baxtim bormi, deya so'rayman.

Yuzlarimni silab, siypalab,  
Baxting bor, deb esadi yellar.  
Etgan kabi go'yo bir talab,  
Baxting bor, deb qushlar chiyillar...

Hamma narsa meni qarshilar,  
Har bir kurtak menga so'ylar roz.  
Men yurganda bog'larga to'lar  
Faqat baxtni maqtagan ovoz:

«Mana senga olam-olam gul,  
Etagingga siqqanicha ol.  
Bunda tole har narsadan mo'l,  
To o'lguncha shu o'lkada qol.

Umridda hech gul ko'rmay, yig'lab,  
O'tganlarning haqqi ham senda,  
Har bahorni yig'lab qarshilab,  
Ketganlarning haqqi ham senda...»

Derazamning oldida bir tup,  
O'rik oppoq bo'lib gulladi...      (Х. Алимджан)

# НОРМЫ УЗБЕКСКОГО ЛИТЕРАТУРНОГО ЯЗЫКА

- ◆ Нормы орфографии.
- ◆ Нормы произношения.
- ◆ Нормы грамматики.
- ◆ Нормы выбора слов и их применение.
- ◆ Стилистические нормы.

## I. НОРМЫ ОРФОГРАФИИ

**Упражнение 14.** Прочитайте предложения и перепишите их. Найдите слова, написанные с ошибками, и замените их правильными. Объясните причину допущенных ошибок.

1. Til tafakkurning in’ikosi, uning hosislidir. 2. Bu yerning iqlimi issiq, siz mo’tadil havoga ko’nikkansiz. 3. Samarqanddan olgan taassurotlaringiz asosida insho yozing. 4. Bog‘ga chiqib, qip-qizil olmalarni ta’riflang, baxr-u dilingiz ochiladi. 5. Davo hujjatlari tayyor bo‘lguncha, ish joyingizdan tafsivnomalar keltingiring. 6. To‘yboshi dev qomat bir yigitni sahnaga chiqardi. 7. Amudaryoning bu qadar shiddatli oqishini endi ko‘rishim edi-da!



Соблюдение правил орфографии, то есть умение грамотно писать, является основным критерием правильности речи. Критерии орфографии создаются носителями языка путем сознательного соглашения. Соблюдение этих критериев утверждается специальными правилами орфографии. Критерии письменности современного узбекского языка, основанного на латинской графике, опираются на «Основные правила орфографии узбекского языка», утвержденные Кабинетом Министров Республики Узбекистан от 24 августа 1995 года.

В них включены правила орфографии букв, орфографии корней и аффиксов, переноса слов на другую строчку, правописание слов раздельно и слитно, и другие правила, которые необходимо соблюдать в письменной речи.

**Задание 21.** Составьте словарь слов, заимствованных из других языков. Прокомментируйте порядок букв в новом узбекском алфавите, основанном на латинской графике.

**Упражнение 15.** Напишите по указанному ниже образцу, двумя столбиками, слова, в которых встречаются буквы с апострофами, такие как **o‘, g‘**, а также слова с разделительным знаком, обозначающим твёрдый знак в кириллице.

*Пример:*

**1-й столбик**

o‘zbek

mablag‘

**2-й столбик**

ta‘sir

mo‘tabar

**Задание 22.** Прочитайте текст и на его основе письменно изложите ваши рассуждения и предложения о том, что нужно знать для того, чтобы писать грамотно.

So‘z va qo‘sishchalarini to‘g‘ri yozish, qo‘shib va ajratib yoziladigan so‘z va so‘z shakllarini bilish, bosh harflar bilan yozilishi kerak bo‘lgan so‘zlarni farqlash kabi imlo amallarini o‘zlashtirmasdan turib yozma savodxonlikka erishish mumkin emas. Imlo qoidalarini bilish faqat to‘g‘ri yozishni o‘rganish uchungina zarur deyish xato bo‘ladi. So‘zlarni to‘g‘ri o‘qish, nutq jarayonida to‘g‘ri talaffuz qilish, hatto so‘zning matndagi ma’nosini to‘g‘ri anglash va o‘rinli qo‘llay bilish uchun ham imlo qoidalarini puxta egallash taqozo etiladi.

Shuning uchun ham Vazirlar Mahkamasи tomonidan tasdiqlangan «O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari»ni chuqur o‘rganish va yozma nutqda ularga to‘la amal qilish har bir o‘quvchi, qolaversa, barcha fuqarolarning burchidir. Afsuski ko‘zga tashlanib turgan ko‘cha peshtoqlarida, idoralar nomi yozilgan lavhalarda ***Yunus-obod***, ***Yangi-bozor***, ***orom-baxsh***, ***ko‘z oynak***, ***elektro texnika*** kabi xato yozuvlar uchrab turibdi.

Vatanini, millatini sevgan har bir kishi yozuv madaniyati azal-azaldan milliy qadriyatlarning ko‘zgusi, ilmiy-ma’rifiy salohiyatning belgisi bo‘lib kelayotganini aslo unutmasligi lozim. Ulug‘lanayotgan qadriyatlarimizdan biri bo‘lgan milliy yozuvimizga hurmat va e’tiqodni to‘g‘ri va chiroyli yozish orqali tarbiyalashimiz maqsadga muvofiqdir.

**Упражнение 16.** Перепишите слова, запомните правописание парных гласных и согласных букв.

I. Matbaa, mutolaa, manfaat, mudofaa, murojaat, muta-assib, taassurot, taajjub, taassuf, shuur, vakuum, inshoot, badiiy.

II. Muqaddam, muddat, modda, moddiy, muqaddas, malla, metall, murakkab, mutafakkir, mukammal, tavakkal, tasarruv, tafakkur, tullak, taraddud, zukko, ziddiyat, Zahiriddin, gamma, grammatika, diagramma, hujjat, himmat, hammom, hurriyat, hakka, dukkak, lazzat, kollej, kakku, kalla, silliq, salla, sakiz, sodda, jiddiy, go‘mma, chappa, chillaki, xatti-harakat, qaddiqomat, achchiq, avvalo, omma, okulist, yollanma.

## ОРФОГРАФИЯ ОСНОВ И АФФИКСОВ

**Упражнение 17.** Прочитайте предложения. Обратите внимание на изменения в корне выделенных слов, объясните причину, по которой произошли эти изменения.

1. **O‘ynab** gapirsang ham, o‘ylab gapir. 2. Xalq botir **o‘g‘lon-larni** hech qachon unutmaydi. 3. **Og‘zaki** nutq qisqa va ifodali bo‘lishi kerak. 4. Qizcha erkalanib opasining **bo‘ynidan** mahkam quchdi. 5. Bolaning ko‘ngli o‘ksimasin deb **yumshoq** o‘rindiqqa o‘tqazdi. 6. So‘roq qilingan kishining ayblarini **sanab** berdik. 7. Sog‘lom va zehnli bo‘lib **ulg‘aygan** bola hayotda **qiynalmaydi**. 8. So‘z bilan **o‘ynovchilardan** yuragim bezillaydi. 9. Musavvirning **bo‘yog‘ida** hayot chizgilarini aniq ifodalangan edi.



### Изменение коренных гласных:

— при добавлении к глаголам с окончанием на **а** аффиксов **-v**, **-q**, **-qi** гласная буква **а** изменяется на **о** и пишется следующим образом.

*Например: sin**a**>sinov, so ‘**r****a**>so ‘roq, tira>tiroq, sayra>sayroqi;*

— при добавлении к глаголам с окончанием на **i** аффиксов **-v**, **-q** гласная **i** изменяется на **u**.

Например: *sovi*> *sovuiq*, *to‘qi*>*to‘quvchi*, *o‘qi*>*o‘quv*. Но в словах *og‘riq*, *iliq*, *qaviq* коренная буква **i** остается без изменения;

— при составлении глагола из подражательных слов с помощью аффикса **illa** ( как *taqilla*, *chirilla*), если в опорном слове имеется буква **v** или звук **y**, эти аффиксы произносятся и пишутся в форме **ulla**, как *guvulla*, *shovulla*, *lovulla*.

При добавлении притяжательных аффиксов к заимствованным словам из персидского и арабского языков с окончанием на гласную, к таким как *parvo*, *avzo*, *obro‘*, *mavzu*, *mavqe*, они пишутся следующим образом:

*a)* при добавлении в конце этих слов аффиксов I и II лица произносится и пишется звук **y**, как *parvoyim*, *avzoying*, *obro‘yingiz*, *mavzuym*, *mavqeying*;

*b)* притяжательные аффиксы III лица к словам *parvo*, *obro‘*, *avzo*, *mavqe* добавляются в форме **-yi**, к словам *mavzu*, *orzu* в форме **-si**, например: *avzoyi*, *obro‘yi*, *mavzusi*, *orzusi*.

**Упражнение 18.** Из данных глаголов при помощи аффиксов составьте существительное или прилагательное и подчеркните изменения, произошедшие в корне этих слов.

Ili, qayna, sovi, yumsha, qot, tin, yon, sana, *to‘qi*, *qizi*, *to‘xta*.

**Задание 23.** Прочитайте текст. Найдите слова, в которых произошли звуковые изменения, объясните причину произошедших изменений.

Odob kichik yoshlilarni kattalar duosiga sazovor etadi; yoshlar u duo barakasidan umrbod bahramand bo‘ladilar. Odob ulug‘lar ko‘nglida yoshlarga mehr uyg‘otadi va u odobli yoshga bo‘lgan muhabbat ko‘nglida abadiy qoladi. Yoshlarni ko‘zga ulug‘ qilib ko‘rsatadigan fe’l-atvori odobdir, odoblilarning yurish-turishida xalq ulug‘vorlik ko‘radi.

Odob kishilar tarafidan qilinishi mumkin bo‘lgan humatsizlik eshigini berkitadi va odamni hazil-mazaxdan, kam-

sitishdan saqlaydi. Odobdan kichiklarga shunchalik foyda yetadigan bo‘lsa, kattalarga nechog‘lik ekanini tasavvur qiling. Odob va tavoze do‘stlik oynasiga jilo beradi va ikki oraga yorug‘lik bag‘ishlaydi.

Odob urug‘ini ekkan odamning hosili javohir bo‘ladi. Odobli va go‘zal xulqli odamlar ko‘payaversa, xalqning do‘stligi, ularning bir-biriga bo‘lgan mehr-muhabbatи borgan sari rivoj topadi.

Алишер Навои, из книги «Махбуб ул-кулуб»



### Изменение согласных букв в корне и аффиксах.

При добавлении притяжательного аффикса к словам с окончанием на **-к**, **-қ** эти буквы меняются, вместо **«к»** пишется **g**, вместо **«қ»** пишется **g‘**. Например: *ohak>ohagi, bek>begi, tayoq>tayog‘i, yo‘q>yo‘g‘i*.

Исключением являются слова: *ishtirok, erk, huquq, ravnaq, uaq, haq, ishtiyoq*.

Аффиксы, начинающиеся с буквы **-г**, такие как **-га**, **-gacha**, **-gach**, **-guncha**, **-gani**, **-gudek**, **-gan**, **-gin**, **-gina** произносятся и пишутся в зависимости от того, к какому звуку корня они присоединяются:

*a)* если слово заканчивается на согласную букву **-к**, то первый звук присоединенного аффикса звучит как **-к** и пишется буква **-к**, например: *tok +ga > tokka, ek+gin > ekkin, kichik+gina > kichikkina*;

*b)* если слово заканчивается на согласную букву **-қ**, то первый звук присоединенного аффикса звучит как **-қ** и пишется буква **-қ**, например: *soliq + ga > soliqqa, chiq + gani > chiqqani, yoq + gach > yoqqach, qo‘rq + guncha > qo‘rquncha*;

*в)* в остальных случаях, независимо от того, каким звуком заканчиваются слова (в том числе заканчивающиеся на буквы **g**, **g‘**), первая буква аффикса пишется **g**, например: *barg + ga > bargga, dialog + ga > dialogga, bug‘ + ga > bug‘ga, tog‘ + ga > tog‘ga*.

**Упражнение 19.** Найдите в словаре 10 слов, заканчивающихся на согласные буквы **к**, **қ**, **г**, **г‘** и напишите их сначала с притяжательным аффиксом,

а затем с другими аффиксами, начинающимися с **g**, в случае изменения звука, объясните, почему звук изменился.

**Задание 24.** Прочитайте с выражением отрывки из стихов. Уточните и выпишите в тетрадь слова, в которых меняется звук.

Har kimki chuchuk so‘z elga izhor aylar,  
Har nechaki ag‘yor durur yor aylar,  
So‘z qattig‘i el ko‘ngliga ozor aylar,  
Yumshog‘i ko‘ngillarni giriftor aylar.

*Алишер Навои*

Orzum shul, o‘chmasin yongan charog‘ing,  
Yulduzday nur sochsin chashming-qarog‘ing,  
Magar chinor bo‘lsang, chinorday yasha,  
Bevaqt uzilmasin biror yaprog‘ing.

*Абдулла Арипов*

Tarixing bitmakka, xalqim,  
Mingta Firdavsiy kerak.  
Chunki bir bor chekkan ohing  
Mingta doston, o‘zbegim.

*Эркин Вахидов*



### Выпадение звука в корне и аффиксах.

I. При добавлении притяжательного аффикса ко второму закрытому слогу существительного и к такой же форме глагола залога **-il** второе корневое гласное не произносится и не пишется. Например: *og‘iz > og‘zim, shahar > shahrинг, o‘g‘il > o‘g‘li, ayir > ayril, qayir > qayril*.

При добавлении аффиксов **-ov, -ala** к числительным, которые заканчиваются во втором открытом слоге гласными, корневое гласное **-i** не пишется. Например: *ikkov, ollov, yettala*.

При добавлении к местоимениям **men, sen** (**я, ты**) аффиксов **-ni, -ning, -niki** буква **-n** не произносится и не пишется. Других слов, заканчивающихся в корне на **-n**, это правило не касается. Например: *meni, sening, meniki* и *o‘rinni, nonning, matnniki*.

**Упражнение 20.** Найдите в предложениях слова, в которых наблюдается выпадение звука в корне и аффиксах, перепишите их в тетрадь.

1. O'z ko'nglingni ko'tarishning eng yaxshi yo'li kimningdir ko'nglini ko'tarishdir (*M. Твен*). 2. Har kimki atog'a ko'r rioyat qilg'ay, o'g'lidan anga bu ish siroyat qilg'ay (*A. Навоу*). 3. Sening har bir ishing boshqalarga ibrat bo'lishini unutma. 4. Og'ziga kelganni demoq nodonning ishi (*A. Навоу*). 5. Ikkalasi ham shahrimizdag'i o'zgarishlarni ko'rib lol qolishdi. 6. To'pidan ayrilganni bo'ri yer (*пословица*).

**Задание 25.** Вспомните пословицы о дружбе и верности. Запишите в тетрадь те из них, в которых наблюдается изменение в звуке. Объясните эти изменения в соответствии с правилами орфографии.



II. Аффикс родительного падежа пишется в форме **-ning**. Например: *O'zbekistonning iqtisodi, bilimning kuchi*. В устной речи может иметь форму **-ni**, в поэтическом языке возможны формы **-n**, **-im**. Например: *Ukamni oldiga kirdim. O'zbekiston Vatanim manim*.

Аффикс винительного падежа всегда имеет форму **-ni**. Например: *Lolani ko'rdim, mehrimni berdim*. В поэтическом языке и устной речи может употребляться в форме **-n**, **-di**, **-ti**, **-i**. Например: *Har fasl o'z ishin qilar. Adl qulog'i-la eshit holini* (*Мукими*).

Родительный и винительный падежи иногда могут оканчиваться на аффиксы **-ning**, **-ni**, а иногда могут употребляться без окончания (без аффиксов).

В личной форме при внесении уточнения эти падежи употребляются с аффиксом, как *uyning eshigi, oq gulni uzatmoq*; в неопределенной форме при выражении общности они употребляются без аффикса, как *shahar ko'chasi, olma yetoq*.

**Упражнение 21.** Перепишите предложения, поставив вместо многоточия аффиксы соответствующих падежей. Объясните, как употребляются аффиксы **-ning**, **-ni**.

1. Mamlakat... kichik bir qismi bo‘lgan oila..., un... tinchligi... asraylik. 2. Hayotda o‘z o‘rni... topishida odam... bolaslikdagi faoliyati, olgan bilimi va tarbiyasi katta o‘rin tutadi. 3. Ba’zan o‘ylab deyman, ne bo‘lardi gar, qudrat... ko‘rgizsa tabiat hassos. Va inson suvrat... u muqarrar, fe’l-u atvoriga aylab qo‘ysa bas (*A. Арипов*). 4. Yo‘lchi arava... nimasi shikastlangani... payqamay, hayron bo‘lib turar ekan, arava... tagidan dehqon... ayanchli tovushi eshitildi (*Айбек*).

## ПРАВОПИСАНИЕ СЛОЖНЫХ И ПАРНЫХ СЛОВ

**Упражнение 22.** Прочитайте данные предложения, найдите в них сложные и парные слова, перепишите их в тетрадь отдельными столбиками.

1. Farg‘ona vodiysi osmono‘par tog‘lar bilan o‘ralgan. 2. Quyosh tog‘-toshlarni qizdirgan payt, ertapishar olmalar qip-qizil. 3. G‘o‘zapoyasi yig‘ib olingan daladan yoz-u qish hosil olinadi. 4. Yosh-qari, erkak-ayol aralash-quralash bo‘lib ko‘cha boshida to‘planishdi. 5. «Qo‘shariq» jamoa xo‘jaligida g‘o‘za obihayotga qondirilmoqda. 6. Ona-bola uy-joyni yig‘ishtirib, sadarayhon atrofida dam olishdi. 7. Bu bodomqovoq qiz xushfe'l tabiatи bilan katta-yu kichikning olqishiga sazovor bo‘ldi.

**Задание 26.** Найдите в словаре 10 примеров на сложные слова, состоящие из двух и более корней, составьте предложения с использованием 4 из них.



### Сложные слова пишутся слитно в следующих случаях:

- если сложное слово передает одно понятие и первая часть слова произносится с усилением: *belbog*, *asalari*, *oshqozon*, *sheryurak*, *qashqargul*;
- если сложные слова составлены при помощи слов: *xush*, *kam*, *ham*, *itimit*, *bop*, *noma*, *xona*, *sifat*, *rang*, *baxsh*, например: *xushxabar*, *kamhosil*, *hamfikr*, *itimitxalq*, *hamtabop*, *tavsiyanoma*;
- если сложные слова оканчиваются во второй части аффиксами **-(а) r, mas**, например: *o‘rinbosar*, *cho‘iquvar*, *ishyoqmas*, *qushqo‘nmas*;

- если географическое название представляет собой сложное слово с однородным существительным или словом *obod* в конце слова, например: *Amudaryo, Yangiyo'l, Kosonsoy, Yunusobod.*

**Упражнение 23.** Уточните состав сложных слов и объясните их правописание.

Oqqa'rg'on, qushtili, tinchliksevar, umumjahon, baqaterak, makkajo'xori, Sirdaryo, sovuqmijoz, devqomat, pirpirak, olmaqoqi, suvilon, bayramoldi, qo'l bola, sohibjamol, birpas, mingoyoq, xushhavo, qo'ziqorin, bodomnusxa, izzattalab.

**Задание 27.** Найдите в стихах (рубаи) сложные слова и объясните состав этих слов.

Shoho, fuqaroki munisi g'amduhlar,  
Bedor dil-u ko'zları purnamduurlar.  
Zinhor alarni qilmag'il ozurda,  
Otashdam-u barhamzani olamduurlar.  
*Мунис*

Tole' yo'qki jonomg'a balolig' bo'ldi,  
Har ishniki ayladim, xatolig' bo'ldi.  
O'z yerni qo'yib Hind sari yuzlandim,  
Yo rab, netayin, ne yuzqarolig' bo'ldi.  
*Бабур*



**Сложные слова пишутся раздельно в следующих случаях:**

- если в географических названиях первая часть является прилагательным, а вторая часть — имя собственное: *Kichik Osiyo* (*Малая Азия*), *Sharqiy Turkiston* (*Восточный Туркестан*), *Quyi Chirchiq* (*Верхний Чирчик*);
- сложные глаголы пишутся раздельно: *shifo topmoq, olib chiqmoq, yoza boshlamoq, ayitib bermoq, ko'rgan edi*;
- сложные наречия пишутся раздельно: *har kim, hech bir, hamma vaqt, qay kuni*. Исключением являются слова: *biroz, birpas, birato'la, birmuncha*;

- словосочетания, состоящие из двух слов с одинаковыми корнями, связанные с аффиксом **-dan**, например: *kundan kunga, tomdan tomga, ochiqdan ochiq, ko'pdan ko'p*.

**Задание 28.** Найдите в словаре 10 сложных слов, пишущихся раздельно, составьте предложение используя 4 из них.

**Упражнение 24.** Прочитайте текст, найдите сложные слова, пишущиеся раздельно, объясните состав этих слов.

O‘z naslini kofir qo‘liga tutqin qilib topshiruvchi — biz ko‘r va aqlsiz otalarga xudoning la’nati, albatta, tushar, o‘g‘lim! Bobolarning **muqaddas gavdasi** madfun Turkistonimizni kofirxona qilishga hozirlangan biz itlar, yaratuvchining qahriga, albatta, yo‘liqarmiz!

Temur ko‘ragon kabi dohiylarning, mirza Bobur kabi fotih-larning, Forobiy, Ulug‘bek va Abu Ali ibn Sino kabi olim-larning **o‘sib-ungan** va nash’-u namo qilganlari **bir o‘lkani** halokat chuquriga qarab sudraguvchi, albatta, Tangrining qahriga sazovordir, o‘g‘lim! Gunohsiz bechoralarni bo‘g‘izlab, bolalarini yetim, xonalarini **vayron qiluvchi** zolimlar — qurtlar va qushlar, yerdan o‘sib chiqqan giyoqlar qarg‘ishiga nishonadir, o‘g‘lim!..

*A. Кадыри, из романа «Минувшие дни»*

**Упражнение 25.** Выделите парные слова и запишите их в тетрадь. Объясните их смысл.

Urf-odat, nim pushti, yarimorol, tez-tez, baxt-saodat, dori-darmon, toshko‘mir, yalangoyoq, tasdiq etdi, uch-to‘rt, yoza-yoza, o‘g‘il-u qiz, qosh-qovoq, olgan bo‘ldi, qo‘rqa-pisa, shu on, tokqaychi, yuzma-yuz, hovli-joy, so‘ramay-netmay, olaqarg‘a, asbob-uskuna, yer-u osmon, sap-sariq, hol-ahvol, ko‘ksulton, keta ber, yoz-u qish.

**Задание 29.** Составьте из данных ниже слов парные слова, добавив к ним соответствующее слово.

Qarindosh-..., kuch-..., qovun-..., yo‘l-..., non-..., osh-..., o‘yin-..., bo‘lar-..., gul — ..., yer-..., yor-..., dor-..., tepsa-...,

temir-..., asta-..., oq-..., chora-..., kirim-..., mehr-..., aytdi-..., kecha-..., uzoq-... .



### Раздельно через дефис пишутся следующие слова:

- раздельно через дефис пишутся парные и части повторяющихся однокоренных слов: *asta-sekin, uch-to'rt, kiyim-kechak, qop-qop, iyu-uyiga*;
- если парные слова связаны с союзом **-и (-yu)**, то перед союзом ставится дефис: *oq-i qora, kecha-uu kunduz*;
- слова, объединенные частицами **-ma, -ba** пишутся через дефис: *yuzma-yuz, rang-barang, qadam-baqadam*;
- порядковые числительные, стоящие перед словом, написанные арабскими цифрами, пишутся через дефис: *5-sinf, 6-«V» sinf, 1991-yil, 3-mart*.

**Задание 30.** Выберите в словаре 10 слов, употребив их с частицами, запишите отдельными столбиками те, что пишутся через дефис и те, что пишутся слитно.

## II. НОРМЫ ПРОИЗНОШЕНИЯ

**Задание 31.** Прочитайте текст, найдите слова с ошибками в произношении и написании, объясните взаимоотношения этих слов в тексте.

— Modarni ko‘rdilarmu? — so‘radi Vafo attor kemshik tishlarini ko‘rsatib. — Xo‘s, qalaylar, kampir tuzuklarmu?

— Rahmat! — Bashirjon gapni qisqa qilib, o‘tib ketmoqchi edi, lekin Vafo attor:

— Bir daqiqa! — deya uning yengidan tortdi.

— Xo‘s!

— Indi, uka o‘rtoq Zaynishuv! — dedi u mitti ko‘zlarini yiltiratib. — Biz o‘zimiz betobdurmiriz, hovlida nogiron kurra-chaning holi ne kechdi? Kecha o‘g‘ul kelib erdi, eshshak bolasi-ga yem va beda kerak deydur...

Bashirjonning jahli chiqib ketdi, attorning qo‘lini qahr bilan siltab tashladi.

— Bas-da endi! — dedi u qip-qizarib. — Hozirga qadar o‘ttiz so‘m oldiyiz... O‘sha kurrayiz ikki pulga qimmat!

— Mani, bemorni siltamang, uka o‘rtoq Zaynishuv! — dedi Vafo attor yig‘lamsirab. — Bobongiz tengiman, siltamang mani!

Негмат Аминов

**Упражнение 26.** Прочитайте с правильным произношением данные слова и словосочетания, переведите их на русский язык, объясните разницу в их смысле и в чем тут причина.

Bir daf'a — daf etilmoq, man keldim — man qilinmoq, shox kesmoq — shohni surmoq, modda — moda, qattiq — qatiq, da'vo — davo, maqta — maqta', ta'rif — tarif, sur'at — surat, hil-hil pishmoq — xilma-xil tovlanmoq, tovlanmoq — toblanmoq, sillasi qurimoq — silab qo‘ymoq, tilla — tila.



**Нормы произношения** литературного узбекского языка в процессе устной речи основываются на нормах правильного произношения слов и словосочетаний.

В произношении большую роль играет правильная артикуляция звуков, имеющая свои особые закономерности.

Наряду с произношением звуков соответственно установленному в алфавите порядку, соответствующими норме произношения считаются и нижеследующие состояния произношения:

1. Глухое произношение звука **b** в конце слова, с переходом на **p**, как, например: *hisob* > *hisop*, *kelib* > *kelip*.

2. Глухое произношение звука **d** в конце слова, с переходом на **t**, либо пропадание звуков **d** или **t** при произношении, как, например: *dard* > *dart*, *band* > *bant*, *go'sht* > *go'sh*, *past* > *pas*.

3. Выпадение в некоторых словах звука **l**, как, например: *bo'lgan* > *bo'gan*, *kelsa* > *kesa*.

4. Смягчение согласных после гласных в заимствованных словах: *bank*, *tank*, *disk*, произношение в некоторых заимствованных словах звука **f** вместо **v**, что не считается отступлением от нормы.

**Упражнение 27.** Прочитайте слова, соблюдая правильное произношение. Объясните причины состояния возможных ошибок при произношении звуков.

Xursand, fikr, yuzsiz, tavsif, borarkan, sunbula, uchta, ketdi, bo'lsa, ravshan, boringiz, fabrika, buncha, taxt, oftob, borib, televideniye, avtomobil, qo'shiq, manba, ketyapman, birla, yigitcha, tuzsiz, mazkur, oqshom, to'qson, bizni, novvoy, seshanba, yutuq, yubordi, supra, birorta, marotaba, kabob, tebranmoq, yomg'ir, Abdusalom, jabr-sitam, Xolida opa, krovat, konstitutsiya, boj, billur, hozir, so'zsiz.

**Задание 32.** Уточните соответствие звуков в скороговорках, произнесите правильно и четко звуки **ng**, **q**, **g'**, **j**.

1. Zang bosganga rang yuqmas, rang yuqqanni zang bosmas.
2. Tubsiz dengiz dedingizmi, dengiz tubsiz dedingizmi?
3. G'ozg'onning marmari jahonga mashhur, bizning g'ozg'onchilar shuning uchun mag'rur.
4. Simyog'ochdag'i qaldirg'och qayrag'ochdag'i qora qarag'aga qayrilib qaraganda, qayrag'ochdag'i qora qarg'a qarag'aya qaradi.
5. Sijjakdag'i g'ijjakchi jiyyadan g'ijjak yasarmish.
6. Jajji jiblajibon jajji Jo'ra bilan jo'ra, jajji Jo'ra jajji jiblajibon bilan jo'ra.

**Задание 33.** Прочитайте с выражением стихотворение, правильно произнося гласные звуки. Обратите внимание на мелодику строк.

...Farog'at borligin unutib qo'ydim,  
Bag'rimga chaqinlar tegdi daf'atan.  
Sendan-da ulug'roq narsa yo'qligin  
Sochim oqarganda angladim, Vatan!  
Buncha kech angladim,  
Nega muncha kech...  
Anglasam loaqal o'ttiz yil avval,  
Loaqal tug'ilmay turib anglasam...  
  
Ko'rgan bo'larmidim seni mukammal.  
Hali asl Vatan bo'lmog'ing uchun

Ovozi toshlarni yorar kuychilar.  
Qanchalab sehrgar shoirlar kerak,  
Qancha bilim kerak,  
Qancha kuch-chidam.  
Umrim ko'chkilarday jimjit, shiddatli,  
Butkul timmoq uchun bir kun bemalol,  
Faqat yaxshi bo'lmoq judayam kamdir,  
Juda kamlik qilar yashamoq halol.  
Naqadar kechikib angladim seni,  
Chaqinlar yo'q qilsa meni daf'atan,  
Ayt, qandoq chidayman bunday xo'rlikka,  
Ayt, qandoq yotaman qa'ringda, Vatan!

*Шавкат Рахмон*

### III. НОРМЫ ГРАММАТИКИ

**Упражнение 28.** Перепишите слова, правильно вставляя вместо многоточия аффиксы **-ning** или **-ni**. Уточните, какому падежу соответствует измененное слово и с каким словом оно согласуется в предложении.

1. Shevaga xos qo'shimchalar... adabiy til qoidalariga mos holatda ishlatmaslik imlodagi xatolar... kelib chiqishiga sabab bo'ladi. 2. Aristotel har bir jumla... asosiy fikr... ifoda etishga qaratilishi..., ravon va tингlovchi tushunadigan darajada sodda bo'lishi... talab etadi. 3. Safar aka... astoydil achchiqlangani ... sezgan imomi oraga tushdi (*A. Kad.*). 4. Yo'lchi arava... nimasi shikastlangani... payqamay, hayron bo'lib turar ekan, arava... tagidan dehqon... ayanchli tovushi eshitildi (*O.*). 5. O'rmonjon Qurbon ota... bu ish... bemaslahat, bemavrid boshlanganiga xafa bo'ldi (*A.K.*). 6. Elmurod... hammadan oldin yuborilgan razvedka... hadeganda qaytmayotgani tashvishlantirdi (*III.*). 7. Ona tilimiz... ijtimoiy hayot... barcha sohalaridagi mavqeyi... oshirish barcha... vazifasidir.

**Задание 34.** Найдите слова с аффиксами **-li** и **-lik**, **-qaz** и **-kaz**, **-dir** и **-tir**, **-chi** и **-(u)vchi**, объясните разницу между этими словами и какие из них написаны правильно.

*Пример:* Go‘shtli somsa — go‘shtlik somsa.  
Buxoroli ustalar — buxorolik ustalar.



Написание форм слов, аффиксов, словосочетаний, порядок слов в предложении и их согласование основываются на **грамматических нормах**. Правильность речи с грамматической точки зрения является основным требованием литературного языка.

На основе грамматических правил формируются правильная взаимосвязь слов и аффиксов, согласование подлежащего и сказуемого, а также порядок сочетания частей речи в предложении. Поэтому при составлении предложения и построении фразы необходимо соблюдать следующее:

- различать смысл и задачу падежных аффиксов и применять их по назначению. Например, аффикс **-ning** связывает существительное с существительным, а аффикс **-ni** связывает существительное с глаголом: *ukatning kitobi*, *kitobni olmoq*;
- различать аффиксы, образующие существительное и прилагательное: *tuzdon* (сущ.) — *gapdon* (прил.), *kiyimlik* (сущ.) — *yashil kiyimli* (прил.), *tenglama* (сущ.) — *ko‘chma* (прил.);
- правильное использование аффиксов образующих глагольных залогов: *tadbir o‘tkazmoq* — *ko‘chat o‘tqazmoq*, *kuldir* — *keltir*;
- обеспечение сочетания личных местоимений с подлежащим и сказуемым: *ular o‘qiydilar* (а не в форме *ular o‘qiydi*);
- соблюдение в предложении порядка слов: *uyga shoshib kirdi* (а не в форме *kirdi shoshib uyga*).

*Исключение:* в стихотворных жанрах допускается нарушение порядка слов в предложении.

**Задание 35.** Прочитайте текст, разъясните состояние следования грамматическим нормам, сущность изменений в порядке слов.

Dunyodagi hatto eng ulug‘ o‘lik ham iztirob chekmoqdan mahrum, zero, insoniy iztirob — tiriklik nishonasi, barhayot

diyonat ovozidir. Demak, mehnat-u tarbiyalari zoye ketmabdi — Humoyun tegrasiga boqar ekan, yuragi dardga to'ladi, dard uni bezovta xayol bilan qadamini taftish etadi. Demak, uning ko'ksida vijdoni uyg'oq, adl-u insofi tirik. Balli, o'g'lim, deb shivirladi u, barakalla, bahodirim!.. Ammo shu zahoti ko'nglini muzlatib xavotir tuyg'usi bostirib keldi: bu yumshoqfe'lllik bilan Humoyunning mamlakatdorlik qilmog'i qiyin, benihoyat qiyin!

Dili muztar bo'lib, o'g'lining maktubidan bir taskin-tasalli qidirdi. Humoyun xushxat edi, lekin maktubning ba'zi o'rinalarini qiynalib, tusmollab ma'nosini chaqdi.

«Yana men degandek, bu xatlarining bitibsen va o'qumayesen, ne uchunkim, agar o'qur xayol qilsang edi, o'qiyolmas eding», deya tashvish bilan yoza boshladi u...

X. Султанов, «Концепция»

#### IV. НОРМЫ ВЫБОРА СЛОВ И ИХ ПРИМЕНЕНИЕ

**Упражнение 29.** Прочитайте предложения, перепишите их, заменив неправильно примененные слова правильно примененными.

1. Yigitcha rosa charchagan ekanmi, ovqat yeb darrov uxbalgoldi. 2. Ko'lning zilol suvida tonggi quyosh nurlari toblannoqda edi. 3. Asl shoyidan tikilgan ko'ylyak bu qomatdor qizga yoqishini bildi. 4. Ishimiz shunday sur'atda davom etsa, qurilishni bayramgacha tugatamiz. 5. Qara, o'g'lim, eshikka bir inson keldi. 6. Cho'pon ozg'in qo'yлarni yaylovga haydab, o'z makoniga qaytib keldi. 7. Nachalnikka uchrashsam, sudga davo qilishingiz mumkin, dedi.

**Задание 36.** Прочитайте текст. Выскажите свою точку зрения относительно мыслей писателя, обосновав значение примененных им слов.

Gap shundaki, hozirgi vaqtida tilimizning boyligini, uning ochiriqlarini o'rganishga erigan, so'z san'atiga hunar deb emas, kasb deb qaraydigan, bisotidagi bir hovuch so'zni yillar davomida aylantirib kun ko'rib yurgan bir turkum qalam ahlining «faoliyati», chala mulla ba'zi olimlarning «ilmiy xulo-

sa»lari natijasida ajib bir til bunyodga kelgan. Bu tilda hech kim gapirmaydi, zotan gapirish mumkin ham emas, faqat yozib o'qib berish mumkin. Bu tilda yozilgan narsani bir qiyomda o'qimasdan ham iloj yo'q. Bu tilning hech qayerga yozilmagan, lekin amalda joriy bo'lgan temir qonuniga ko'ra «yaxshi ovqat yedim!» deb yozib bo'lmaydi, albatta, «sifatli ovqatlandim», deb yozish shart!

*A. Kaxxap, «Рамки дозволенного»*



Одной из важных норм речи считается **использование слов**, существующих в литературном языке и понятных разговаривающим на этом языке.

Для правильного использования слов требуется:

- умелое применение синонимов во избежание повтора слов в речи;
- разумное употребление близких по значению слов и паронимов;
- избегание непонятных для говорящих диалектизмов или жаргонизмов, имеющих хождение в определенной социальной среде;
- ограничение употребления заимствованных слов, по возможности используя их синонимы, которые имеются в родном языке;
- стремление к краткости и изяществу в применении слов.

**Упражнение 30.** Прочитайте предложения, разъясните смысл выделенных слов, подберите к ним синонимичные слова.

1. Temur **tug'i** yetmagan joyni qalam bilan oldi, Alisher (*A.O.*). 2. **Tiliga kuchi yetadigan** kishi aql podshosidir; so'zga ahamiyat bermaydigan kishi la'natlangan, pastdir (*A. Ha-bou*). 3. Xalq oldida gapirganda so'zing go'zal bo'lsin, bu so'zni xalq qabul qilsin («*Кабуснаме*»). 4. Xullas, yaxshi nutq tuzish uchun nahv, aruz, mantiq fanlari hamkorligidan foydalananish zarur bo'ladi. Ularning birontasiga ahamiyat bermaslik, bulardan birining qoidasi buzilishi qolgan ikkitasiga ta'sir qilmay qolmaydi (*Беруни*).

**Задание 37.** Прочитайте отрывок «Описание слова» («So‘z ta’rifi») из поэмы Алишера Навои «Хайратул аброр» («Hayrat-ul abror»), изложите содержание отрывка в прозе на узбекском языке.

## V. СТИЛИСТИЧЕСКИЕ НОРМЫ

**Задание 38.** Прочитайте данные тексты и сравните их. Объясните разницу в подборе слов и содержании.

1. Texnika — yunoncha so‘z bo‘lib, san’at, mahorat degan ma’noni bildiradi. Texnika — inson faoliyati vositalari majmuyi. Ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish va jamiyatning turmush talablarini qondirishga xizmat qiladi. Ba’zan biror faoliyatdagi mahorat va usullar ham texnika deb ataladi (masalan, milliy kurash texnikasi). Ijtimoiy ishlab chiqarishning rivojlanish jarayonida insoniyatning bilimi va ishlab chiqarish tajribasi texnikada mujassamlanadi. Texnika insonning og‘ir mehnatini yengillashtiradi.

2. Shirin muomalada bo‘lish har bir kishining burchidir. Odamlar bir-birlarining qalbiga yaxshi va shirin so‘z orqali yo‘l topadilar. Ammo inson qalbiga so‘zni o‘z holicha singdirib bo‘lmaydi. Buning uchun o‘zingizga libos tanlagan kabi so‘zni ham pardozlaysiz. So‘zingizga libos sifatida ohang kiydirasiz, gapingiz go‘zal so‘zlardan tashkil topsin. Ortiqcha har bir so‘z noo‘rin ichilgan dori kabi zararlidir. Har bir kishi so‘zning qadrini baland tutsin, samimiy va jarangdor so‘zni sog‘inib yashasin.

**Задание 39.** На основе вышеизложенных текстов выполните следующие задания:

- Найдите синонимы к словам: *mahorat, turmush, qondirmoq, yengillashtimoq, inson, libos, so‘z, qalb, qadr.*
- Сравните формы глаголов в обоих текстах, объясните, в чем между ними разница.



Использование слова в зависимости от особенности текста или конечной цели речи, употребле-

ние понятных для всех форм слова, правильное применение слов, аффиксов, построение предложения в зависимости от стиля речи — все это описывается на **стилистические нормы** литературного языка.

Для соблюдения стилистических норм необходимо:

- отличать настоящий смысл слова от переносного смысла этого слова;
- знание и уместное использование синонимов, антонимов, однородных слов и видов глаголов;
- употребление слов и фраз в точной и понятной для всех форме;
- учитывание своеобразия стилей речи;
- уместное использование художественных, эмоциональных средств языка;
- учитывание стилистических особенностей слов.

**Упражнение 31.** Прочитайте предложения. Перепишите слова с измененным смыслом, укажите в чем состоит разница в их смысле и в чем заключается их стилистическая задача.

1. Mollarning narxi pasaysa, ishlab chiqarish pasayadi. — Samadboy shu qishloq odamlarining mollarini boqib yuribdi.
2. Fuqaro o‘z ixtiyoriga ko‘ra qonun doirasida o‘ziga ma’qul ish bilan shug‘ullanadi. — Ikkita doira chizing, ularning ichiga zid ma’noli so‘zlarni yozib chiqing.
3. Eshitgan quloq nima deydi? — Qulok pardalari ehtiyotli muolajani talab etadi.
4. Yurak faoliyati insonning asab tizimiga bevosita bog‘liqdir. — Yuragimga yaqin kishilar bilan ochiq gaplashib oldim.
5. Ma’lum bo‘ldiki, yangi dastgohlar korxona hisob-kitobida qayd etilmagan. — Ular qachonlardir o‘z «ega»sini topib ketganini xodimlar yaxshi biliшadi.

**Задание 40.** Прочитайте стихотворение, объясните смысл выделенных слов и словосочетаний.

## **Men kimnidir kutgayman, mahzun**

...Yiroqlarda ingranar List ham,  
Qulog‘imga **bo‘zlaydi Furqat**.  
Huzurimga chiqmas bir odam,  
Men baribir kutgayman faqat.

Shilliqqurtday **to‘lg‘anar ariq**,  
Suyanaman **badburush tolga**.  
Osmon yuzi shundayin sariq,  
**Sovuqlikni** qaylardan olgan?

Kular-da va qalqib borar **oy**.  
U hayosiz shundoq **yalang‘och**.  
Kimni aldab balqib borar oy –  
Tevarakda **kecha qorasoch**.

Tugab borar **tun yanglig‘ toqat**,  
**Saharlarga bergayman hisob**.  
**Qayga ketdi, qayga muhabbat**,  
Yuragimda **muqaddas azob**.

*Рауф Парфи*

### **Вопросы и задания:**

1. Расскажите о правилах, связанных с орфографией аффиксов.
2. Какие слова пишутся с черточкой?
3. Приведите примеры правильного использования падежных аффиксов.
4. На что следует обращать внимание при использовании слов?
5. Объясните на примерах стилистическую разницу в словах.

## СТИЛИСТИЧЕСКИЕ ФОРМЫ РЕЧИ

- ◆ Речь и ораторское искусство.
- ◆ Стили речи.
- ◆ Официально-административный стиль.

**Задание 41.** Прочитайте данные отрывки из текстов и определите, к каким стилям речи они относятся. Обоснуйте своеобразие стиля каждого текста в отдельности.

I. **7-modda.** Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o‘zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalari va normalariga rioya etiladi.

Davlat o‘zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta’minlaydi, shu jumladan, unga hamma e’tirof qilgan ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atamalarni joriy etish hisobiga ta’minlaydi.

Yangi ilmiy asoslangan atamalar jamoatchilik muhokamasidan keyin va Oliy Majlis tegishli qo‘mitasining roziligi bilan o‘zbek tiliga joriy etiladi.

*Из закона «О государственном языке  
Республики Узбекистан»*

II. Notiqlik qadimgi Sharqda juda katta ijtimoiy-siyosiy mavqega ega bo‘lib, umum davlat ahamiyatiga molik ish hisoblangan. U bir necha turga ajratilgan:

1. Ilmiy-siyosiy ma’ruza.
2. Bahs-munozarali nutq.
3. Targ‘ib va tashviq qilish ruhidagi nutq.
4. Marsiya nutqi.
5. Tabrik nutqi va boshqalar.

Notiqlik san’ati qadimda voizlik san’ati deb yuritilgan. «Qomusi Usmoniy» nomli lug‘atda «Va’z — kishilarning qalbini yumshatadigan pand-nasihatdir», deya ta’riflanadi. Haqiqatan ham voiz har bir so‘zga chiqishda ma’lum bir g‘oyani ilgari surishni maqsad qilib oladi.



Процесс использования при выражении мысли всего языкового материала считается речью. Лексические, фразеологические, фонетические и грамматические возможности языка в разных сферах жизни, в различных речевых обстоятельствах используются по-разному. Исходя из этого, различаются следующие стили речи: **разговорно-бытовой стиль, официально-административный стиль, научный стиль, публицистический стиль и литературный стиль.**

**Упражнение 32.** Перепишите данные предложения, разделив их по форме стиля на соответствующие группы. Вместо точек поставьте подходящие по стилю слова или форму глагола.

1. Men bu gapni faqat tarjima vajidan aytayotgan... yo‘q. Yozuvchi o‘z ona tilisi ustiga o‘z zamonasining boy, madaniy tilini bilmasdan qanot bog‘lamaydi. Buning misolini adabiyotimiz tarixida, hozirgi adabiyotimizda ... ko‘rishi... mumkin (A. K.).
2. Bulardan birinchi..., nutq madaniyati sohasining vazifasi til va nutqdagi nuqson va kamchiliklarni aniq..., to‘p..., uni o‘rgan... va bartaraf etishdan iborat..., deyilgan nuqtayi nazar.
3. O‘sha «masalang» o‘rniga tushsa, dashnom...ga qalqon bo‘lishi, lovilla... asablarga suv purkab, seni ortiqcha dilsiyohliklar... asrashi ham mumkin! (У. Усманов).
4. Men, Rasulov Anvar, «Eng yaxshi kitobxon» ko‘rik-tanlovini o‘tkazish... litseyimiz kutubxonasidan 10 (o‘n) ta badiiy kitob ol....
5. Axir, talaba jamiyatning oldi qatlami sanaladi... Shuni... kerakda, «o‘qib uqmasa bekor»....

**Задание 42.** Подберите по одному небольшому тексту из прочитанного вами художественного произведения, вашей любимой газеты или журнала, а также из учебника, который вы держите в руках. Проведите сравнительный анализ этих текстов. Объясните разницу в их стиле с точки зрения языковых особенностей.

**Задание 43.** Прочитайте с выражением стихотворение. На основе его содержания составьте тексты поэтического характера в литературном стиле и официального характера в научном стиле, в форме рецензии. Разъясните, в чем заключаются схожесть и различие в этих текстах с точки зрения языковых особенностей, присущих каждому из этих стилей.

## TILLA BALIQCHA

Tuxumdan chiqdi-yu, keltirib uni  
Shu loyqa hovuzga tomon otdilar.  
Tashlandiq ushoq yeb o‘tadi kuni,  
Xor-u xas, xazonlar ustин yoptilar.

Dunyoda ko‘rgani shu tor hovuzcha  
Va mudroq tollarning achchiq xazoni.  
Menga alam qilar, tilla baliqcha  
Bir ko‘lmak hovuz deb bilar dunyon...

*Абдулла Арипов*



Официально-административный стиль применяется в рамках государства и межгосударственного общения, он присущ языку социально-правовых отношений, официальных, политических, экономических, культурных связей. Особенностью этого стиля является то, что он носит канцелярский характер. Этот стиль присущ языку документов, поэтому он применяется при письменном изложении различных государственных законов, указов, официальных сообщений, канцелярских документов, объявлений, в официальной переписке и других служебных бумагах. Основными преимуществами стиля официального языка являются краткость и ясность. Наличие и широкое применение в этом стиле речевых штампов, профессиональных терминов, готовых синтаксических структур обеспечивают ясное и точное выражение речи. Готовыми речевыми структурами узбекского языка являются такие выражения, как *shunga ko‘ra; ma ’lum qilamizki; ...ni e’tiborga olib; ...ga ko‘ra; ...biz, quyida imzo chekuvchilar, ...ga asosan (muvofig); ...uchun, ...dan kelib chiqib; ...sharti bilan; ...berilsin, ...taqdirlansin*, которые требуют обеспечения в тексте информативности и последовательности изложения, точности в подборе слов, без использования художественно-изобразительных средств, правильного использования форм глаголов страдательного залога и повелительного наклонения, широкое использование сложных предложений.

Языковый материал подбирается в соответствии с формой и характером документа.

**Упражнение 33.** Перепишите предложения. Выпишите в отдельные столбцы характерные для официального стиля предложения, изложенные в первом и третьем лице. Объясните смысл клишированных фраз.

1. Sizning ko'rsatmangizga binoan, men o'quv bo'limi uslubiyotchisi S.Olimov bilan II bosqich talabalarining mart oyidagi davomatini tahlil qildim. 2. Ma'lumotnomaga tuman ijtimoiy ta'minot bo'limiga ko'rsatish uchun berildi. 3. Ushbu da'vo bo'yicha sud qarorini tezlik bilan ijro ettirish haqida qaror qabul qilishingizni so'rayman.

**Упражнение 34.** Прочитайте оба текста и письменно, на примерах, обоснуйте разницу в их стиле.

1. Hasanali, Otabekning har bir siriga o'zini mahram hisoblaganlikdan, darhaqiqat, Otabekka mahram bo'lishga loyiq bir mehribonlikka ega bo'lganlikdan, bek bilan ochiq so'zlashish fikriga keldi. Bir necha daqiqa muqaddima uchun reja qurib o'tirgandan so'ng, tilga keldi:

- O'g'lim, Otabek!
- So'zlangiz.
- Aytingiz-chi, men sizning kimingiz?

Otabek, Hasanaling maqsadiga tushunolmay majhul unga nazar tashladi.

— Sizmi? — deb kulimsiradi u. — Otam bo'lmasangiz ham, meni otalik muhabbat bilan sevgan sodiq va mehribon bir kishimsiz, ya'ni ma'naviy otam.

A. Кадыри, из романа «Минувшие дни»

2. Husayin Voiz Koshifiy nutqlarining ta'sirchanligi, jozibadorligi haqida uning o'g'li Fahriddin Ali Safiy «Latoyifut tavoyif» nomli asarida quyidagilarni eslaydi: «Kunlarning birida ahli majlisga Mavlono Sayid G'iyosiddin degan mashhur so'z ustasi kechikib kelgan. Bu majlisga Abdurahmon Jomiy ham tashrif buyurgan ekan. Sayid G'iyosiddin kirib kelishi bilan Jomiy undan so'rabi:

- Nechuk kechikdingiz, mavlono Giyosiddin?

— Meni ma’zur tuting, ustod, — debdi G‘iyosiddin, — kelayotgan edim, masjidi jomedan Husayin Voiz Koshifiy nutq so‘zlayotgan ekan, shunga mahliyo bo‘lib qolibman.

*Из «Культуры речи юриста»*

**Задание 44.** В газете или журнале прочитайте статью на тему образования или культуры, объясните с точки зрения языка, чем характерен этот текст по стилю.



**В официальном стиле** письменной речи составляются документы в рамках следующих отношений:

1. В **юридических**: законодательные, гражданские и уголовные акты, договора и другие документы.

2. В **административно-канцелярских**: удостоверения, приказы и распоряжения, разные деловые бумаги (заявления, характеристики, доверенность, объяснительные и др.).

3. В **дипломатических**: заявления, ноты, соглашения, меморандумы и др.

**Упражнение 35.** Прочитайте данные предложения, перепишите их в тетрадь, исправив стилистические ошибки.

1. Ehtiyot qismlar, yoqilg‘i-moylash va boshqa xomashyolarining sarf-xarajat narxlari oshganligi bilan shahar yo‘lovchi tashish transportida yangi yo‘lkira haqlari belgilandi. 2. Yaqin kelganimda «Xush kelibsiz!» degan yozuv uzoqdan ko‘zga tashlandi. 3. Eng avvalo, dalalar to‘la, nihollar sog‘lom bo‘lishi kerak. 4. Mahalla ko‘chalarida piyodalar yurish xavfsizligi oyligi o‘tkazildi.

**Задание 45.** Напишите небольшой текст на тему: «Стиль языка учебника». Постарайтесь выразить в нем свои замечания и предложения.

#### **Вопросы и задания:**

1. Какие виды ораторского искусства вам известны?
2. Расскажите о лексических и фонетических особенностях разговорной речи.
3. В чем преимущество литературного стиля в использовании языковых возможностей?
4. Назовите особенности официально-делового стиля.

## ФОРМА И СТРУКТУРА ТЕКСТА

- ♦ **Формы текстов.**
- ♦ **Диалогический текст.**
- ♦ **Описательный текст.**
- ♦ **Способы сокращения текста.**
- ♦ **Способы расширения текста.**
- ♦ **Выбор слова в соответствии с текстом.**
- ♦ **Составление текста.**

**Задание 46.** Прочитайте данные тексты, объясните разницу в их форме и содержании.

I. — Inson ruhi uchun haqiqiy zavq mutolaadir, — dedi Navoiy qiziqib. — Ammo yolg‘iz ash’or o‘qimoq kifoya qilmas. Tarix! Tarixni ko‘zdan kechirmadingizmi?

— Ko‘ngil ash’orga ko‘proq moyil bo‘ldi. Fursat bo‘lsa, tarixni ham boshlagumdur, — javob berdi Badiuzzamon.

— Men sizga tarixga oid kitoblarni qasddan ko‘p yuborgan edim. Balki xabaringiz bordir, otangiz podshoh hazratlariga ham hamma vaqt tarix o‘qimoqni tavsiya qilamen. Davlatning butun mas‘uliyati sizlarning zimmangizdadir. Obodonlik yoki inqiroz sizlarning tadbir va harakatingizga bog‘liqdir. Shuning uchun siz tarix oynasiga qarab turmog‘ingiz kerak...

Айбек, из романа «Навои»

II. «Buyuk xizmatlari uchun» ordenini qo‘limga olib qarayman. «Buyuk» so‘zini o‘qiganimda yetmisht yetti yillik g‘uborlarim tarqab ketgandek bo‘ldi. Ko‘rgan jabr-u jafolar tumandek g‘oyib bo‘ldi.

Jez konlari tagida mis kukunlarini yutib, o‘pkasi zanglab olamdan o‘tgan, jasadlari zanglagan tuproqqa qo‘yilgan

yurtdoshlarim haqqi, Sibirning qahraton sovuqlarida muzlab qolgan, umrini o'rmonlarda poyoniga yetkazgan beqiyos dono ustozlarimiz haqqi, senga ta'zim qilaman, O'zbekistonim!

*C. Ахмад, из мемуаров «Утраты и находки»*



**Текстом** считается речевая единица, состоящая из одной или нескольких синтаксических соединений, дающих представление (информацию) о происходящем событии.

Независимо от того, относится ли он к устной или письменной речи, текст бывает двух видов: диалогический и монологический. **Диалогический текст** состоит из обмена информацией двух или более собеседников.

Диалогическая речь между двумя лицами может содержать утверждение или отрицание, обострение отношений или спор, и выражаться в таких формах, как **вопрос-ответ, приказ-ответ, сообщение-воздражение**.

В диалогах, где участвует несколько лиц, тема беседы не ограничивается вопросами и ответами, а обобщается поставленным вопросом, предложением, призывом, вестью или обоснованием чего-либо.

В диалогическом тексте широко употребляются вопросительные местоимения, слова и словосочетания, характерные для этики взаимоотношения, восклицательные, а также вводные слова.

Такой текст в основном состоит из простых предложений, из односоставных форм простых предложений, неполных предложений, отдельных слов, носящих характер предложения.

Диалогический текст характерен для литературного стиля и разговорной речи.

**Задание 47.** Прочитайте по ролям диалог Хусрава и Фархада в поэме Алишера Навои «Фархад и Ширин». Определите в этом диалоге языковые средства и перепишите их в тетрадь.

**Упражнение 36.** Уточните стилистические особенности выделенных слов. В соответствии с формой предложения выпишите их в отдельные группы.

- Siz... qochqoqsiz, — dedi.
  - Siz...
  - Men?
  - Siz quvloqsiz.
  - **Ajab qilaman**, — dedi Kumush va shapalog‘i bilan erining yuziga sekingina urib qo‘ydi.
  - Bu yoqqa ham...
  - U yoqqa Zaynab ursin.
  - Zaynabning... urishga haqqi yo‘q.
- Kumushning ko‘zida haligacha ko‘rulmagan bir shodlik o‘ynadi:
- **To‘g‘ri aytasizmi?**
  - To‘g‘ri aytaman!
  - **Mana bo‘lmasa**, — dedi Kumush. Otabekning ikkinchi yuzini ham silagandek qilib qo‘ydi. Yana kulimsirashib, termulishib qoldilar...

*A. Кадыры, из романа «Минувшие дни»*

**Задание 48.** А) прочитайте данный текст, охарактеризуйте, чем он отличается от диалога. Объясните смысл и задачу прилагательных и определений.

...Ta’birimiz qo‘pol tushmasa bu go‘zal qiz och ra’no-gulining tusida yoki oq sariq tusda yaratilg‘an edi. A’zoda o’skan tuklarga ham haligi tusning ta’siri bo‘ladir. Ra’noning sochi gungurt-qora, ya’ni quyoshhsiz joylarda qora ko‘rinsa ham quyoshda biroz sarg‘ish bo‘lib ko‘rinar edi. Shunga o‘xhash Ra’noning ko‘zida ham buning asari ko‘ruladir: mudavvarga moyilroq jodu ko‘zi kishiga qattiq qaraganda qoraliqdan bosh-qacha yana bir turluk nur sochar erdi. Kipriklari ostida nafis bir surma doirasi bor edi.

Qoshi tutash kabi ko‘rinsa ham ko‘ndalang yotqan ikki qilich orasini nafis bir quyulib ko‘tarilish ajratib turar edi. Burni hech bir munaqqidg‘a berishmaslik mutanosib, har zamon uyalish tabassumiga hozir turg‘an nafis irinlarining yuqorig‘i qismida sezilar-sezilmas tuklar ko‘kargan edi.

*A. Кадыры, из романа «Скорпион из алтаря»*

Б) ответьте на вопросы:

1. Matn qanday nutqiy vazifani bajarishga qaratilgan?
2. Matndagi uyushiq va ajratilgan gap bo‘laklari nimaga xizmat qilgan?
3. Matnda qanday tasviriy vositalar qo‘llangan?
4. Nima uchun matnda belgi-xususiyatni ifodalovchi so‘zlar ko‘proq?



**Описательный** (монологический) текст — это изложение или характеристика какого-либо события, предмета, личности, информации или сообщения от лица говорящего или писателя. Статья и сочинение тоже являются одним из видов монологического текста.

Высказывание мнения относительно события, происшествия, предмета, личности, описание их литературно-художественными средствами или на основе фактов документально-информационного характера свойственно описательному тексту. Поэтому в таком тексте активно применяются слова, выражающие признаки и свойства предмета, термины, модальные слова, функциональные формы глагола, наречия.

При создании описательного текста также широко используются однородные члены предложения, отдельные части предложений, назывные предложения, виды сложных предложений.

Описательный текст свойственен публицистическому, официально-деловому, а также художественному стилям.

**Задание 49.** Составьте текст, описывающий направление вашего обучения или любимую вами специальность. Не забудьте привести убедительные аргументы и факты.

**Упражнение 37.** Прочитайте отрывки из текстов, перепишите в одну колонку предложения, характеризующие основное содержание, в другую — вспомогательные и дополняющие предложения, сравните их между собой.

I. G‘azal nihoyat ta’sirli. Ayniqsa uch-to‘rt bolaning ovozi juda yoqimli, ohangdor. Hammamiz jim tinglaymiz. Men sel bo‘lib, erib ketaman. Fuzuliyning she’rlarini sevaman. She’rlari nafis. O‘zim gul va mahbub haqida go‘zal she’rlarni bilaman. Opam o‘rgatgan (*Айбек, из повести «Детство»*).

II. Beixtiyor o‘zining ana shunday saodatli onlari, Humoyun tug‘ilganda qalbini to‘ldirgan iftixor tuyg‘ulari yodiga tushdi. O‘g‘li Qobul arkida tavallud topgan edi. Viloyat yo‘q, viloyat umidvorligi yo‘q, navkar parokanda, sargardon sarg‘ayib, Samarqand qamalida ochlikdan it etini, eshak etini yegan miskinlar bilan dahshatli uqubatlar chekib, Toshkanda va Andijonda mislsiz mashaqqat va xorliklar tortib, nihoyat, Qobulda bir muddat qo‘nim va osoyish topgan kunlari edi, shikasta ko‘nglini quvonchga to‘ldirib, Humoyun dunyoga keldi (*Хайриddин Султанов, из рассказа «Точка»*).

**Упражнение 38.** Прочитайте предложения, перепишите их, за-ключая в скобки однородные и вводные слова. Замените прямую речь на косвенную. Укажите разницу между первоначальным и переделанным вами предложением.

1. Har birimiz o‘z maktabimiz, sinfimizni esladik. 2. Bog‘-ning turli joylarida har xil mevali daraxtlar: nok, o‘rik, jiyda va hokazo anchagina (A.). 3. Bir vaqtlar siz ham, Temir Akbarovich, xato qilishdan qo‘rmaslik kerak, deb gapirar edingiz (П.К.). 4. Navbat o‘ziga kelganda, avvondan turib, mahdum baqirdi: Ra’no, akangning qo‘liga suv quy! (A. Kad.). 5. To‘g‘risini aytsam, ustozimning nomlarini eshitganimda, ko‘nglim ancha taskin topdi.



Существуют следующие способы **сокращения текста**:

- умение выделить предложения, выражающие основное содержание текста;
- сокращение в предложении однородных слов и отдельных частей, словосочетаний, вводных слов и добавленных конструкций;
- замена словосочетаний на подходящее по смыслу слово, простого распространенного предло-

жения на нераспространенное, сложное предложение на простое, прямую речь на косвенную;

— сокращение предложений, вносящих дополнительные уточнения, синтаксических параллелей и повторов;

— разделение текста на составные части, передающие его краткое содержание;

— приведение к краткой форме прилагательных, причастий, сравнений и других выразительных слов и словосочетаний.

**Задание 50.** Сократите текст, сохранив его основное содержание. Объясните, каким способом вы сократили текст.

Har qanday qilmishning aksi, qaytarma oqibati mavjud: shunday ekan, faqat o‘z prinsipimni himoya qilaman deb, bir kun borib ko‘pchilikni dog‘da qoldirmaylik tag‘in?!

Axir mavjud nazariyalar qolipiga tushmaydigan faktlar, ayniqsa, fan uchun qimmatli emasmi? Chunki shu noma’lum faktlarni ishlab chiqish bilan yaqin oralarda fanning yangi yo‘nalishlariga yo‘l ochib berish mumkin-ku? Fan tarixida bunday misollar to‘lib-toshib yotibdi. Faktni tan olmaslik, aslida, hazm qilinmagan nazariyaning oqibati-ku!.. Men nasihatgo‘ylik qilishni o‘ylamagandim, ammo o‘rni kelib qoldi. Koinot azaldan insonni zulmat bilan o‘ragan. Fan esa odamzot qo‘lidagi mangu mash’ala!

Zero fan — cheksizlikni o‘rganar ekan, ayni paytda, o‘zining ham had-chegarasi yo‘q. Inson bilimi tugamaydi, u abadiy yaratiladi, abadiy harakatda... Modomiki shunday ekan, men ochgan kashfiyot uslubiga boshqa bir uslub qarama-qarshi chiqib qolsa, nima uchun endi men unga, albatta, tosh otishim kerak? Nima uchun?! Yo‘q, aqlimiz bo‘lsa, istiqbolimizga chinakam qayg‘ursak, orzuni bo‘g‘maylik. Orzu har qanday faktidan ham qudratli! Orzu bamisolai hayot ko‘ksidagi mildirab turgan buloq, gurkirab o‘suvchi nihol...

Уктам Усманов, «Водоворот»

**Упражнение 39.** Сократите предложения, сохранив основную мысль, перепишите их в тетрадь без излишних лексико-грамматических средств.

1. Uning manfaatlarini, fikr-o‘y doiralarini, g‘oya va maqsadlarini yaxshi bilamiz (*Зульфия*). 2. Gapni yana cho‘zmasin deb unga qarshi hech narsa demadi (*A. K.*). 3. Menga qara, bir ish buyursam, yo‘q demaysanmi? (*C. Axm.*). 4. Na muattar chamanzorlar, na muhtasham ko‘shklar, na kumushlangan hovuzlar, na chiroyli qafasdagil qushlar — hech nima uni qiziqtirmadi (*O.*). 5. Kunduzi bo‘lsa, o‘zingizdan o‘tar gap yo‘q, xunukroq ko‘rinadi (*A.K.*).

**Задание 51.** Выберите из учебника или журнала текст, касающийся вашего любимого предмета, сократите его без ущерба содержанию. Затем разделите текст на краткие составные части и озаглавьте их соответствующим названием.

**Упражнение 40.** Перепишите стихотворение, переложив его в прозаическую форму. Дополните содержание текста своими мыслями и взглядами.

... Ko‘p jahongir ko‘rgan bu dunyo,  
Hammasinga guvoh — yerosti.  
Lekin, do‘srlar, she‘r ahli aro  
Jahongiri kam bo‘lar, rosti.  
Besh asrkim, nazmiy saroyni  
Titratadi zanjirband bir sher.  
Temur tig‘i yetmagan joyni  
Qalam bilan oldi Alisher.  
Dunyo bo‘ldi chamanim, manim,  
O‘zbekiston, Vatanim manim.  
Bosh ustingdan o‘tdi ko‘p zamon,  
O‘tdi Budda, o‘tdi Zardushti,  
Har uchragan nokas-u nodon,  
Ona xalqim, yoqangdan tutdi.  
Seni Chingiz g‘azabga to‘lib,  
Yo‘qotmoqchi bo‘ldi dunyodan.  
Jaloliddin samani bo‘lib  
Sakrab o‘tding Amudaryodan.  
Sensan o‘shal samanim manim,  
O‘zbekiston, Vatanim manim.

*Абдулла Арипов*

**Упражнение 41.** Прочитайте предложения, вместо точек поставьте слова, подходящие по смыслу в виде дополнений, причастий, прилагательных, расширьте их за счет однородных слов и отдельных частей слова.

1. ...., men «muboraknoma»ni o‘qitib ko‘rgan ekanman (*C. Axm.*). 2. Onajonim, ... men ham bir kun shavqqa to‘larman (*A.O.*). 3. Bir ko‘rdim men uni — shunchalar go‘zal, oydan-da go‘zaldir, ... go‘zal! (*Чулпан*). 4. Har birimiz o‘z mifikabimiz, ... esladik. 5. Nahotki u erta-indin uzoq ayrılıq boshlanishini ..., yuragi ezilmaydi (*O.*). 6. Boyagi yigitning, ... qo‘li gul ekan (*П.К.*). 7. Biz Toshkentdan janubga — ... tomonga qarab yura boshladik.



**Расширение текста** зависит от следующих способов и средств:

- уточнение основного содержания, а также опорного слова или предложения, выражающего основную мысль или идею и добавление к ним, исходя из своих творческих возможностей, соответствующих им слов и предложений;
- обогащение текста пословицами, поговорками, прибаутками, мудрыми высказываниями, обоснованными фактами;
- расширение предложения за счет введения однородных членов предложения, вводных слов, дополнительных оборотов;
- замена слов и словосочетаний синонимичными — близкими по смыслу образными выражениями, фразеологическими оборотами и другими художественными средствами выражения;
- превращение простого предложения в прямую речь, разделение прямой речи на простые предложения;
- введение в предложение, выражающее основную мысль, связанных по смыслу синтаксических параллелей в качестве дополнительной мысли или разъяснения;

— дополнение вводной и заключительной частей текста своими, соответствующими содержанию, мыслями, взглядами, разъяснениями.

**Упражнение 42.** Прочитайте текст, пропущенные места дополните своими словами. Выделите языковые средства, связывающие вашу мысль с основным содержанием текста.

Hayot go'zal, yashash maroqli. Biroq inson uchun... Shu bois bo'lsa kerak, inson borki, hamma vaqt imkon qadar bu dunyoning go'zalliklaridan ko'proq bahra olishga, u ... intilib yashaydi. Bu istak esa ba'zida odamzodga baxt keltirsa, ... Insoniyatning eng zaif tomoni ham shunda, menimcha .... U amal qilayotgan ko'plab zararli odatlarning oxir-oqibatini bilsada, ... .

Bugun yoshlar orasida ommalashib borayotgan chekish odati ham ayni yuqoridagi fikrimizga dalil. E'tibor bergen bo'lsangiz, yoshlarimiz ruju qo'yayotgan sigareta tutunlari ... singari tobora farzandlarimizning katta qatlamini o'z iskanjasiga olmoqda.

**Задание 52.** Прочитайте текст. Разъясните смысл выделенных слов.

O'zbekiston **yer islohoti** tizimida **yer mulkchiligidagi** amal qilish iqtisodiy mexanizmining asosiy maqsadi — yerda turli xil xo'jalik yuritish shakllarining teng huquqli rivojlanishi, ko'p **ukladli iqtisodiyotni** shakllantirish, yerdan samarali va **oqilona** foydalanish hamda uni muhofaza etish uchun shart-sharoitlar yaratish manfaatlari yo'lida **yerni qayta taqsimlashdan** iborat bo'lmos'i kerak. Bunday maqsadga erishish, albatta, oson emas va u **yer islohotining** prinsipial **masalalarini** aniqlab olishni taqozo etadi.

*Журнал «O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi»  
(Экономический вестник Узбекистана)*

**Упражнение 43.** Перепишите предложения. Уточните слова, характеризующие профессию, выделите их, заключив в скобки.

1. Endigina tandirdan uzib olingan patir hidi insonga orom beradigan xushbo'y hiddir. 2. Manovi yakka ot-aravada ularga

suv ham, yonilg‘i ham, moy ham, yana boshqa balo-battarlarni yetkazib berishim kerak (*Ч. Атм.*). 3. Binoning devorlariga ganj bilan ishlov berilgan, eshik va derazalari o‘ymakorlik gullari bilan bezatilgan. 4. Tekis taxtaga quruq bo‘r bilan yozsangiz, yozuvningiz aniq ko‘rinadi. 5. O‘rikning turli navlari, qanday payvand qilish, naycha payvand, kurtak payvandlar to‘g‘risida so‘rab-surishtirib, ancha narsalarni bilib oldim (*С. Ахм.*).



Слова, ограниченные в употреблении профессиональными рамками, называются **профессионализмами**. Такие слова понятны представителям одной соответствующей профессии, независимо от того, где они живут. Например, только гончарам понятны такие слова, как **daska** (керамическая посуда, применяемая при обработке водой внутренней стороны еще сырого изделия), **jo‘sha** (красная глина, добываемая в горах), **volash** (обработка).

Основную часть профессионализмов составляют термины. **Термин** — это слово или словосочетание, являющееся названием определенного понятия какой-нибудь специальной области науки, техники, искусства. Термины не имеют дополнительных смыслов и оттенков. Большей частью термины заимствованы из других языков. Например: *advokat, argon, dialog, debtor, grant, modul, metr, test, tormoz, marketing* и др.

**Задание 53.** Прочитайте в одном из ваших учебников текст определённой тематики. Выделите соответствующие данной тематике термины, разъясните их смысл в форме толкового словаря.

**Упражнение 44.** Прочитайте данный текст. Перепишите предложения, в которых содержаться термины, указав в скобках их смысл.

Bir xil ma’noli ifodalarni nutqda ortiqcha kiritish mantiqiylikning buzilishiga sabab bo‘ladi. Bir xil ma’noli birdan ortiq ifodalar pleonazm deb yuritiladi: *men, o‘zim; shu bugun, bugundan boshlab* kabi. Mantiqiy aloqlar va munosabatlarni

ifodalashning muhim vositalaridan biri kirish so‘z, kirish birikmalar, yordamchi so‘zlar, bog‘lovchilar, yuklamalar hisoblanadi. Ulardan to‘g‘ri foydalanish yaxshi nutq yaratishning garovi sanaladi. Gaplar orasida mantiqiylikning buzilishiga sabab sifatida quyidagilarni ko‘rsatsa bo‘ladi:

1. Gaplarni bir-biriga bog‘lashda yuz beradigan xatolar.
2. Bir fikrdan boshqasiga o‘tishda yuz beradigan xatolar.
3. Matnni xatboshilarga ajratishda xatolarga yo‘l qo‘yish.
4. Matnni mantiqiy shakllantirish, sintaktik qurilmalarni tanlashda yuz beradigan xatolar.

Har bir gapda nisbatan tugallangan qandaydir fikr ifodala-  
gan bo‘ladi. Avvalgi gaplarda ifodalangan fikrni keyingi gapda  
ifodalangan fikr, odatda, yo rivojlantiradi, yoki ulardan kelib  
chiqadigan fikrlarni xulosalaydi. Shunday ekan, keyingi gapni  
oldingi gap bilan to‘g‘ri bog‘lash muhimdir. Gaplar bir-biri  
bilan xilma-xil sintaktik vositalar orqali bog‘lanadi.



Правильный подбор и использование профес-  
сионализмов в речи свидетельствует о высокой куль-  
туре речи и компетентности в своей области.

При **выборе слов** следует обращать внимание на следующее:

- знание лексического смысла выбранного слова;
- правильное произношение выбранного слова;
- слово должно быть понятно собеседнику;
- подбор в речи соответствующего слова, исходя из его смысла;
- подбор соответствующего тексту слова;
- подбор интернациональных слов в соответствии с лексической нормой литературного языка;
- выбор слова или термина, соответствующего стилистической особенности текста.

**Упражнение 45.** Внимательно прочитайте предложения. Уточните неправильно использованные слова и замените их правильными, исходя из смысла предложения. Перепишите предложения в тетрадь.

1. So‘zlovchining o‘z fikrini qisqa va bat afsil ifodalab, tinglovchiga yetkazishi ham o‘ziga xos san’atdir. 2. So‘zga benazir

kishi mayda bir maqsadni uzoq so‘zlab bayon qiladi. 3. Nojo‘ya so‘z yurak ko‘zgusini parchalashi, tag‘in insonni vayron qilishi mumkin ekanligini yodda tuting. 4. Nutqi asal kishining mehribon odamizoti ham ko‘p bo‘ladi. 5. Shirin so‘z, go‘zal til inson dilini qanchalik xushnud etsa, aksincha, achchiq so‘z, beso‘naqay gap inson dilini shunchalik noxush qiladi, dil piyolasini parchalaydi. 6. Mashq sababli so‘zlash qobiliyatini, nutq madaniyatini, notiqlik san‘atchiliginu odamlar olqishlaydigan saviyada egallash mumkin. 7. Tilda uni nomlovchi suxan bo‘lmasa, bunday so‘zni hamsoya tildan olish mumkin. Ammo tilda turgan so‘zlar o‘rnida boshqa suxanni qo‘llash falokatdir.

**Задание 54.** Уточните, к какому стилю относятся данные слова и словосочетания. Составьте предложения со словами, относящимися к официально-деловому стилю.

Xalq sayli, bo‘linmas fond, kirim, zarurat tufayli, taftish, so‘zga chiqdi, infrastruktura, mehnat bitimi, ko‘chmas mulk, topshirig‘ingizga binoan, tebranish, hosila, sug‘urta, zimmasiga yuklatilsin, elektromagnit maydoni, modellashtirish.

**Упражнение 46.** Прочитайте тексты. Перепишите используемые в текстах профессиональные термины и объясните, какую стилистическую функцию они выполняют.

I. Rivojlangan davlatlarda auditni boshqarishda davlat faol ishtirok etadi, shuning uchun siyosat elementi bilan har bir audit firmalari davlat siyosatiga javob berishi va audit kompaniyasi shu siyosatga muvofqlashtirilishi kerak.

Davlat audit kompaniyalari majburiyatlarini belgilashda, iqtisodiy hamda moliyaviy qiyinchiliklarni hal qilishda, audit va auditorlar talablarini (ma’lumotini, klassifikatsiyasi, imtihon topshirish tartiblarini va h.k.) belgilashda o‘z ta’sirini o’tkazadi.

Yunusobod tumani tijorat banki  
boshqaruvi raisi      A. Rahmonova  
auditor                  S. Jumayevdan

## II. BILDIRISHNOMA

Sizning ko‘rsatmangizga binoan men kassir-nazoratchi S.Olimov bilan shu yil 15—18-noyabr kunlari «Lazzat» korxonasida audit tekshiruvini o‘tkazdim.

Korxonaning 3-choragidagi daromad ko‘rsatkichi qoni-qarli, soliqlar o‘z vaqtida to‘langan. Lekin mehnatni tashkil etishda qator kamchiliklarga yo‘l qo‘yilgan. Bu to‘g‘rida ilova qilinayotgan ma’lumotnomada batafsil yozilgan.

Auditor

(imzo)

*S. Jumayev.*

2002. 20.11.

**Задание 55.** Прочитайте отрывок из текста в учебнике по изучаемой специальности, заменив имеющиеся в них профессиональные термины другими словами, самостоятельно составьте другой текст. Объясните разницу между оригиналом и составленным вами текстом.



При **составлении текста** по специальности следует обратить внимание на следующее:

- заранее предусмотреть, в каком стиле он будет изложен;
- выбор и правильное размещение терминов и знаков;
- изложение терминов и слов соответственно правилам орфографии;
- чтобы было понятно читателю, пояснить в скобках значение малознакомых или редко используемых терминов;
- перенимать профессиональные термины из других языков и при создании слова учитывать природные особенности национального языка;
- недопущение чрезмерного и неуместного использования профессионализмов, терминов, характерных для профессии слов. Для усиления их действенности умело использовать морфологические, синтаксические и синонимические возможности языка.

**Упражнение 47.** Пользуясь лексическими, морфологическими, синтаксическими, синонимическими воз-

можностями, измените строение предложений и перепишите их.

1. Qish taraddudini ko‘rishga to‘g‘ri keladi. 2. O‘zboshim-chalikka yo‘l qo‘yilmasin. 3. Xalq shevalarini jiddiy o‘rganish va tavsiflash lozim. 4. Ishda yo‘l qo‘yilgan xatolar uchun hayfsan bilan ogohlantirishni taklif qilaman. 5. Saylov. Hamma o‘z nomzodlarini tanishtirish bilan mashg‘ul. 6. Qabul vaqtி tugadi. Ertaga kelasiz. 7. Ma‘lum bo‘lishicha, litsey o‘qituvchisi tumanimizda ekologik muhitni yaxshilash ustida izlanishlar olib bormoqda ekan.

**Задание 56.** Напишите свое мнение и предложения относительно переоборудования учебного кабинета в своем лицее или о том, как лучше провести конкурс «Лучший книгохоб».

Перед тем, как написать текст, подумайте, к кому он будет обращен, в чем будет состоять ваше мнение и на каких фактах оно будет основано. После того, как будет готов черновик, перечитайте его, сократите в нем лишние слова, некоторые из них замените более впечатляющими, проникновенными выражениями, затем вновь проверьте, чтобы исправить допущенные ошибки.

**Упражнение 48.** Изложите в прозе данное стихотворение Абдуллы Арипова. Дополните содержание текста своими словами.

Dunyo bir gulzordir keng va betimsol,  
Yulduzlar g‘unchadir uning ichida.  
Qo‘g‘irchoq ichida qo‘g‘irchoq misol,  
Gullar o‘stiramiz xona ichida.  
Dunyo bir boladir sho‘x va betimsol,  
Uning axtargani shodlik va kulgu.  
Qo‘g‘irchoq ichida qo‘g‘irchoq misol,  
Unga ermak bo‘lib qolmasak bo‘ldi.

**Задание 57.** Используя терминологический словарь, перепишите в тетрадь 10 слов, касающихся одной профессии. Рядом с каждым выбранным словом напишите его синоним

или близкое по значению слово. Затем, используя из них 4 слова, составьте разные по стилю предложения.

**Пример:** ro‘yxatlash — ro‘yxatdan o‘tkazish.

1. Nazoratchi murojaat etayotgan kishilarni ro‘yxatlashga kirishdi. 2. Shaxsiy avtomobilimni ro‘yxatdan o‘tkazishingizni so‘rayman.

**Упражнение 49.** Прочитайте текст документа, замените в нем синонимами глаголы и вспомогательные слова, перепишите текст в тетрадь.

### O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI

*1995-yil, 24-avgust 339-son*

*Toshkent shahri*

O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida.

O‘zbekiston Respublikasining «Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida»gi qonunini bajarish maqsadida Vazirlar Mahkamasini qaror qiladi:

1. O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari tasdiqlansin (ilova qilinadi).

2. Respublika vazirliklari, idoralari, mahalliy hokimiyat va boshqaruvin idoralari, ommaviy axborot vositalari lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosidagi qoidalarni joriy qilish yuzasidan tegishli tadbirlarni ishlab chiqsinlar va amalga oshirsinlar.

3. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, Davlat matbuot qo‘mitasi uch oy muddat ichida maktablar uchun qo‘llanma sifatida o‘zbek tilining lug‘atini, kishi ismlari va joy nomlari lug‘atlarini tayyorlasinlar va nashr etish choralarini ko‘rsinlar.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Vazirlar Mahkamasining Ta’lim va fan hamda Ijtimoiy masalalar va madaniyat bo‘limlariga yuklatilsin.

#### **Вопросы и задания:**

1. Охарактеризуйте текст и назовите его виды.
2. Какие вы знаете способы изменения текста?
3. На что следует обратить внимание при составлении текста?

# ДЕЛОПРОИЗВОДСТВО НА ГОСУДАРСТВЕННОМ ЯЗЫКЕ

## ВИДЫ ДОКУМЕНТОВ И ОСНОВЫ ДЕЛОПРОИЗВОДСТВА

- ◆ История делопроизводства.
- ◆ Виды документов.
- ◆ Служебная переписка.
- ◆ Служебное письмо.
- ◆ Личное письмо.
- ◆ Аргументы и основания при составлении документа.
- ◆ Основы делопроизводства.
- ◆ Основные части документов.
- ◆ Знаки препинания в документах.

**Задание 58.** А) прочитайте текст, объясните смысл выделенных слов.

Bobilning miloddan avvalgi 1792—1750-yillardagi podshohi Xammurapiningadolatpesha **qonunlar majmuyi**, undan ham qadimroq podshoh Ur-Nammu (miloddan avvalgi 2112—2094-yillar)ning qonunlari va boshqa manbalarning mavjudligi «hujjatlar» deb ataladigan **tartibot** vositalarining nechog‘li olis va murakkab tarixga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Albatta kishilik jamiyatining taraqqiyoti, **ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmaning** almashina borishi, aniqrog‘i, kishilar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy munosabatlarning takomillasha borishi barobarida hujjatlar ham takomil topib borgan.

Bugungi kunda fanga tariximizning turli davrlarida O‘rxun-Enasoy, so‘g‘d, eski uyg‘ur, arab va boshqa yozuvlarda bitilgan juda ko‘plab hujjatlar, umuman, **yozma manbalar** ma’lum.

Sharqda X—XIX asrlarda yorliq, **farmon**, noma, bitimlar, arznama, qarznomalar, **vasiqa**, tilxat yoki mazmunan shunga yaqin hujjatlar nisbatan keng tarqagan. Yorliqlar mazmunun xilma-xil bo‘lgan: xabar, **tavsif**, farmoyish, bildirish, tasdiqlash va h.k.

Bu o‘rinda To‘xtamishxonning 1393-yilda polyak qiroli Yag‘aylaga yo‘llagan **yorlig‘i**, Temur Qutlug‘ning 1397-yildagi yorlig‘i, Zahiriddin Boburning otasi Umarshayx Mirzoning marg‘ilonlik Mir Sayid Ahmad ismli shaxsga 1469-yilda bergen yorlig‘i, Toshkent hokimi Yunusxo‘janing 1779-yil 2-iyunda Peterburgga — Rossiya podshosiga o‘z elchilari orqali yuborgan yorlig‘i va boshqalarni eslab o‘tish mumkin;

Б) ответьте на вопросы:

1. O‘rta Osiyoda X asr hujjatlari qaysi tilda yozilgan?
2. Qadimda hujjatlar qanday narsalarga yozilgan? Ulardan namunalar keltiring.
3. O‘rxun-Enasoy bitiktoshlaridagi yodnomalar hujjat hisoblanadimi?
4. O‘rta Osiyoda qaysi davrlarda o‘zbek (turkiy) tilda ish yuritish yo‘lga qo‘yilgan?
5. O‘zbek (turkiy) tildagi hujjat namunalari keltirilgan qanday tarixiy va badiiy asarlarni bilasiz?

**Упражнение 50.** Прочитайте предложения. Перепишите их, разъяснив смысл архаичных оборотов, в скобках укажите приемлемые для современного литературного языка варианты.

1. Xoja Kalonga salom degach, so‘z ulkim, Shamsiddin Muhammad Atovag‘a keldi... Tangri taolodin umid andoq-durkim, bu oraning ishi Tangri taolo inoyati bila bot saranjom topgan («*Бабурнаме*»). 2. Qulluq arzadosht ulkim, safardin salomatliq bila qaytib, maskanga tushulgan xabardin davlatxoh ullar shodmon bo‘ldilar. Umid ulki, hamisha davlat bila sog‘ va salomat bo‘lub olam ahlig‘a komron bo‘lg‘aysiz (A. Навоу. «*Муншиаат*»). 3. Yer-u ko‘kni yaratgan Tangri taologa cheksiz shukrlar bo‘lsinki, yetti iqlim mamlakatlarining ko‘pini mening farmonimga kirgizdi va olim sultonlari va hokimlari menqa egilib, itoat qilish halqasini jon quloqlariga taqdilar («*Уложение Темура*»). 4. Biri ulkim, viloyat molin mashvaratsiz olib turursiz va bu ma’hud emas erdi... Chun sizning tobug‘ingizga ayturga davlatxohlig‘ so‘zini ayturg‘a ma’murmen. Ul jihatdin go‘stohliq bila arzadosht bitildi (A. Навоу. «*Муншиаат*»).

**Задание 59.** Найдите современные синонимы для слов, которые использовались в делопроизводстве в старину. Составьте предложения с найденными синонимами:

munshaot, yorlıq, patta, noma, chopar, munshiy, farmoni olıy, mirzaboshi, devonbegi.



Древние культурные памятники, письмена, начертанные на различных предметах, найденные на территории Средней Азии свидетельствуют о том, что наши предки издревле придерживались своеобразной традиции делопроизводства. В средние века делопроизводство обрело правовые нормы, в государственных учреждениях стали формироваться секретариат и канцелярия, появились различные формы документов.

Узбекский язык в качестве официально-делового языка начал употребляться с периода власти Карабаханидов. Все документы, подготовленные до XX века в дворцовых канцеляриях узбекских ханов и эмиров, отличаются своеобразной стилистикой и содержанием, определенным порядком, а также присущими им речевыми клише.

В период советской власти хоть и было узаконено ведение делопроизводства на русском и узбекском языках, однако общественный статус узбекского языка был низок.

С обретением Узбекистаном независимости, узбекский язык как государственный укрепился в позиции официального языка, на котором ведется делопроизводство.

**Упражнение 51.** Прочитайте текст и объясните смысл выделенных слов, с помощью этих слов составьте предложения, связанные со смыслом текста.

Har qanday hujjat muayyan **axborotni** u yoki bu tarzda ifodalash uchun xizmat qiladi, demak, har qanday hujjatdagi birlamchi va asosiy unsur — bu tildir. Ayni paytda **hujjatchilikda** til axborotni faqat qayd etish vazifasiningina bajarib qolmasdan,

**boshqaruv faoliyatini** izchil tartibga soluvchi vosita sifatida ham namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham, avvalo, o‘z qadimiylaridan kelib chiqib va dunyo hujjatchiligidagi ilg‘or tajribalardan **ijodiy** foydalangan holda, hujjatchiligmizni takomillashtirish yo‘lidan bormoq kerak.

Hujatlarning sof o‘zbek tilidagi yagona **andozalarini** yaratish, bular bilan bog‘liq atamalarning bir xilligiga erishish borasida ish olib borish lozim. Mukammal va oqilona tashkil etilgan hujjatchilik har qanday idoradagi **ish yuritishning** asosi hisoblanadi. Shuning uchun ham zamonaviy xodim zaruriy axborotni **rasmiy ish tilining** tegishli shakllarida bemalol ifodalay olishi, idoraviy ish yuritish **malakalarini** puxta egallagan bo‘lishi zarur.

**Задание 60.** Прочитайте тексты и определите по их содержанию, к каким видам документов они относятся, разъясните, в чем между ними разница.

I. Yusuf savdosida beqaror Zulayho ismidan, Majnun ishqida yig‘lagan Layli otidan — sizga boshimdagи sochlаримни тукларича behad salom. Mendan — hadd-u hisobsiz gunoh, sizdan kechirish. O‘tgan ishga salovat. Chunki shu ikki yil ichida kechirgan qora kunlarni esga olish mening uchun o‘sha kunlarni qaytadan boshdan kechirishlik singari, ul kunlarni siz unuting-unutmang, ammo men unutdim. Shuning uchun so‘zimni o‘zimning oxirgi ham chin baxt islari hidlagan tariximdan boshlayman...

Xatim oxirida shuni ham aytib qo‘yay: o‘ch qaytib, men ham ko‘chadan haydalmasam edi, degan xavf hamisha ko‘nglimda. Agar xudo yorlaqab eshigingizda o‘rinlashib olsam, u yog‘ini o‘zim bilar edim...

3 hamal, Marg‘ilon, Kumushingiz yozdim.

*A. Кадыри, из романа «Минувшие дни»*

II. Men, Abdulla Islomov, kasalligim tufayli o‘z akam Akmal Islomovga (SA seriyadagi 0612408 raqamli pasportga ega) «Cho‘lpon yulduzi» mas’uliyati cheklangan jamiyat kassasidan 2002-yil oktabr oyi uchun yozilgan maoshimni olishga ishonch bildiraman.

III. Otamni ham xuddi bobom kabi Isroil degez der edilar. Otam zahmatkash temirchi edi. O'sha vaqtida bolalarini boqish, ro'zg'or tebratish uchun odamlar juda ko'p mehnat qilishlari zarur ekanligiga sira aqlim yetmas ekan.

Otamning hamma vaqt olovga yo'ldosh kasbidan faqat zavq va shavqni ko'rар edi. Otamday qudratli odam yo'q edi men uchun. Temirlar otam qo'lida chaqmoqlar taratishiga boqib, hayratda qolar edi.

Uning qo'llari cho'qqa aylangan temir parchasini istagan shaklga solib, inson uchun kerakli narsaga aylantirishga qodir edi. Men hali-hanuz otamday bo'lishni orzu qilaman, ammo nailoj, inson qalbiga kira bilish temirga ishlov berishdan mashaqqatliroq, yurakni chaqmoq kabi alanga oldirish har kimga ham tuyassar bo'lavermas ekan...

Зульфия, 1965 год



В делопроизводстве, исходя из содержания и строения документов, они подразделяются на два вида: внутренний и внешний. Документ, составленный в стенах учреждения для внутреннего пользования, называется внутренним документом. Документы, которые приходят в учреждение извне из другого ведомства или от частного лица, называются внешними документами.

В соответствии с тем, какого они характера, документы бывают служебными, официальными и личными. Документ, подготовленный со стороны какого-либо учреждения или от имени руководящего лица (такие как приказ, распоряжение, письменное указание), входит в число служебных документов.

Документами личного характера являются те, что написаны от имени какого-либо лица относительно их служебной, общественной или внешней деятельности (такие как заявление, жалоба, рекомендация).

**Упражнение 52.** При помощи данных словосочетаний составьте предложения. Исходя из того, какого они ха-

рактера: личного или официального, разделите их на группы. Объясните, чем они отличаются друг от друга.

O'qishga kirmoq, vazifasidan ozod etilmoq, salom yetkazmoq, belgilangan jadvalga muvofiq, ko'nglini ko'tarmoq, ko'rishganimizda aytib bermoq, zimmasiga yuklamoq, «Kamolot» yoshlar harakatiga qo'shilmoq, vaqt topolmaslik, o'qituvchi bo'lib ishlamoq, harorat pasayishi oqibatida, xushxabar eshitgandan keyin.

**Задание 61.** Подготовьте письмо на имя директора лицея об участии вашей группы в субботнике. Озаглавьте письмо. Объясните особенности составленного вами текста.

**Задание 62.** Прочитайте текст. Объясните смысл выделенных слов и значение грамматических форм. Определите языковые средства, сформировавшие фразы, выражющие личные отношения.

«Umidim yulduzi, orzum chechagi, hayotim tiragi Kumushimga!

Kinoya va achchiqlar bilan to'liq bo'gan **maktubingizni** oldim. Xatni yozgan chog'ingizda tamom bir o't ichida, g'azab dengizida suzganligingiz gavdalanib **ko'z o'ngimdan o'tdilar**. O'tdilargina emas, hatto menga shunchalik ta'sir etdilarki, go'yo malikasining g'azabiga uchragan qul qay **darajada** es-hushidan ayrilsa, qilar ishidan, o'ylar o'yidan yanglishsa, mening-da hozirgi **holim** buning yuz daraja yuqorisiga yetdi.

To'g'risi, zahar olud maktubingizga odamlarcha tushuna olmadim va tushunishga ham lozim ko'rmadim, **chunki** g'azab ustida aytilgan so'zlar aqli kishilarga loyig'i **muhokama** va **mutolaa** bo'lolmas, gulxandan so'ng alanga hisobini hech bir vaqtda olinmas...

Siz mening bu xatimni o'qib, gunohlarimni **yorlaqab** turgan kezlariningizda, albatta, men Marg'ilon yo'lida bo'lsam kerak. Onangizning o'qiydigan bayti mening sha'nimga tamoman teskari, chunki ota-onasi orzusi hech bir vaqt yangi **yorlik** vazifasini o'tay olmas va hamisha boshqalarning orzu-havasi bo'lib qola berar. Siz o'zingizni tuproq bilan **tenglashtirmakchi**

bo‘lgansiz, lekin men hozir Kumushga ham qanoatlanmay **Oltinbibi** deb atamoq fikriga tushdim...

Borlig‘im muhabbattingiz alangasi bilan tutashgani holda zayjingiz Otabek.

26-javzo, 1265-yil. Toshkent.

*A. Кадыри, из романа «Минувшие дни»*

**Упражнение 53.** Перепишите предложения, поставив вместо точек пропущенные слова и аффиксы. Объясните, чем этот текст отличается от предыдущего.

Toshkent sharqshunoslik akademik litseyi 2-bosqich talabasi Ahror Rahmonov... shaxsiy a’zolik... ochishingiz... so’raymiz. A. Rahmonov o‘qishni bitirgan taqdirda, hisob bo‘limiga kutubxona ma’lumotnomma... topshirma... unga shahodatnomma bermas... kafolat bera.... .

Ushbu majburiyat bajaril... holat... A. Rahmonov... dan kutubxonaga qaytarilmagan adabiyotlar... barcha moddiy javobgar... o‘z zimmamizga... ola.... .



Служебные связи между учреждениями поддерживаются в основном через служебную переписку. При помощи писем даются и принимаются различные указания, запросы, ответы, разъяснения, информации, предложения, претензии, просьбы и гарантии. В соответствии с поставленной задачей **служебные письма** делятся на две группы:

1. Письма, требующие ответа (иски, запросы, просьбы и т.д.).
2. Письма, не требующие ответа (подтверждения, приложения, напоминания, информативное письмо, гарантийное письмо и т.д.).

Все служебные письма ввиду того, что они носят официальный характер, **излагаются на специальном фирменном бланке**. В случае изложения на обычной печатной бумаге, в верхнем левом углу ставится **четырехугольный штамп**, на котором указано наименование учреждения.

Служебные письма **пишутся в двух экземплярах**. Первый экземпляр, подписанный ответственным лицом с указанием его должности, отправляется адресату, второй остается в учреждении.

**Задание 63.** А) прочитайте текст письма, уточните, что изложено в его содержании.

A. Sirojiddinov nomidagi akademik litsey ma'muriyati va kasaba uyushmasi tashkiloti teatringizda 18-oktabr soat 19:00 da namoyish etiladigan «Zebuniso» spektaklini tomosha qilish uchun litseyimiz talabalariga 120 (bir yuz yigirma) ta chipta ajratishingizni so'raydi.

Chiptalar qiymati naqd pul bilan to'lanadi.

Б) перепишите это письмо-просьбу, поставив по местам необходимые реквизиты — обязательные элементы документа, такие как: от кого, кому, кем подписан и т.д.

**Упражнение 54.** Разместив по местам данные реквизиты, напишите на их основе письмо-запрос или письмо-просьбу.

Bu qurilma bizni juda qiziqtirdi. Litseyingiz yosh olimlari tomonidan yaratilgan oqova suvlarni tozalash qurilmasi. «Ekolot» xalqaro jamg'armasi raisi A. Maqsudov. Bu haqda «Ma'rifat» gazetasida xabar chop etildi. Shu sababli Sizdan ushbu qurilmaning texnik tavsifi, yo'riqnomasi va modelini yuborishingizni so'raymiz. Iqtisodiyot litseyi direktori M. Saidovga.

**Задание 64.** Заполните предложенную форму иска о претензии. В качестве вида товара укажите парты или доску.

Иск о выплате штрафа за несвоевременную доставку парты (или доски).

Parta (yoki yozuv taxtasi)  
yetkazib berish kechiktirilgani  
uchun jarima to'lash haqida.

DA'VO

\_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_raqamli shartnomaga binoan  
(sana)  
Siz \_\_\_\_\_ ga bahosi \_\_\_\_\_ bo‘lgan  
(tashkilot nomi) (so‘m so‘z bilan)  
\_\_\_\_\_ dona \_\_\_\_\_ yetkazib berishingiz kerak edi.  
(tovar nomi)

Biroq ko‘rsatilgan shartnomaning shartlari buzilgan holda parta (yoki yozuv taxtasi) kun kechikib yetkazib berildi.

Shartnomaning bandiga muvofiq, tashkilotingiz muddatida yetkazib bermagan       so‘mlik parta (yoki yozuv taxtasi) bahosidan      % miqdorida Sizning hisobingizga so‘m jarima yozildi.

Ko'rsatilgan jarima summasini 30 kunlik muddatda bizning hisob-kitob raqamimizga o'tkazishingizni so'rayman.

Mazkur summa belgilangan muddatda to'lanmagan taqdirda  
ish xo'jalik sudiga oshiriladi.

*Litsey direktori* (imzo) *B. Karimov*

**Задание 65.** Ответьте на вопросы.

1. Da'vo xatlari qanday maqsadlarda yoziladi?
  2. Iltimos xati qanday zaruriy qismlardan tashkil topadi?
  3. Kafolat xati bilan da'vo xatining zaruriy qismlari o'r-tasidagi farqlarni izohlab bering.
  4. Illova xati qaysi holatlarda yoziladi?
  5. Xizmat xatlarining qaysi turlari uchinchi shaxs nomidan yoziladi?



Служебные письма состоят из **трех последовательных частей**. Во **вступительной части** излагается суть причины, побудившей обратиться с письмом в соответствующую организацию. Во **второй части** на основе неоспоримых доводов излагается необходимость решения поставленных вопросов. В **заключительной части** говорится об основной цели, по поводу которой пишется письмо.

При написании текста делового письма необходимо обратить внимание на следующее:

- письмо должно быть кратким, как принято, не более одной страницы;
- мысль должна быть выражена четко и ясно;
- слова и выражения в тексте не должны употребляться в переносном смысле;
- в соответствии с формой и содержанием документа предложения должны формулироваться либо в третьем лице единственного числа, либо в первом лице множественного числа;
- заглавие текста в виде одной фразы не должно превышать двух строк и завершаться вспомогательными словами: «*to‘g‘risida*» или «*haqida*». Например: «*Litsey oshxonasini ta‘mirlash to‘g‘risida*»; в тексте не указывается вид и название документа, они находят отражение в содержании письма.

**Упражнение 55.** Уточните, какая мысль выражена в предложениях, перепишите их, указав в скобках, к какому виду письма они относятся.

1. Anjumanda quyidagi masalalar ko‘rib chiqildi. 2. Ushbu qo‘lyozmalarni muhokama qilish va tegishli xulosa berish uchun yo‘llaymiz. 3. Ma’ruzachilarни taklif etish, kutib olish va turarjoy bilan ta’minalashni litsey ma’muriyatiga o‘z zimmasiga oladi. 4. Mavjud buyurtmalarni bajarishga ulgurmoyotganligimiz sababli iltimosingizni bajara olmasligimizni ma’lum qilamiz. 5. Birlashma tajriba-sinov o’tkazish uchun barcha sharoitlarni yaratishga kafolat beradi.

**Упражнение 56.** Перепишите данное ответное письмо, правильно расставив аффиксы в пропущенных местах.

«Fidokor» gazeta...  
bosh muharriri *S. Safarov...*

«Fidokor» gazetasi tahririyati tomoni... 2002-yil 3-martda yuborilgan I—01-90 raqamli so‘rov xatingiz... javob.... Sizga shuni ma’lum qilamiz..., mahallamizda yashovchi bir guruh yoshlari... 14-turarjoy dahasida ommaviy sport turlari bilan shug‘ullan... uchun yetarli sharoitlar yo‘qligi to‘g‘risida...

shikoyat xatida ko'rsat... kamchiliklar mahalla faollari yig'ili-shi... shu yil 23-martda o'tkazilgan yig'inida ko'rib chiq....

Xat... ko'rsatilgan kamchiliklar asos... ekan... tan olin... . Yunusobod tumani... 14-dahasidagi qarovsiz qoldirilgan maydonlarni toza..., uylar hovlisidagi garajlar... oldirib, o'yingoh... aylan..., mavjud sport inshootlarini ta'mir... vazifalari «Hashar» kommunal xo'jali... rahbari Q. Ochilov... topshirildi.

Ko'rilgan ushbu chora-tadbirlar... ijrosi haqida tahririya-tingiz... qo'shimcha xabar qila.... .

«Yunusobod» mahalla qo'mita... raisi (imzo) S. Olimov



Мысль, излагаемая в официальном письме, должна быть выражена в логической последовательности, обоснована аргументами и подытожена.

При необходимости можно выразить уместное предложение или несогласие. Однако при этом необходимо соблюсти **правила этики обращения**, то есть уважительное отношение к ответственному лицу, к которому обращено письмо. В этих целях:

- уважительная форма обращения к руководителю или к любому другому адресату, выраженная словом «*Siz*» (*Sizga, Sizdan*) — «Вы» (Вам, Вас и т.д.), пишется с большой буквы;

- единство мысли обеспечивается такими словами, как «*bu*», «*ushbu*», «*mazkur*», «*shu sababli*», «*shunga ko'ra (muvofig)*»;

- предложение и несогласие могут быть выстроены при помощи таких слов и словосочетаний, как «*bizningcha*», «*shartnomaga ko'ra*», «*biroq*», «*shu bilan bir qatorda*», «*deb o'ylaymiz*».

**Задание 66.** Подготовьте информацию о проведенном в вашем учебном заведении семинаре на тему: «Alisher Navoiy ijodi — bebahoh ma'naviy meros» (Творчество Алишера Навои — бесценное духовное наследие). Убедитесь в правильности расстановки слов, дав прочитать текст своему однокурснику.

**Задание 67.** А) прочитайте данное письмо. Объясните смысл выделенных слов.

Onajon! Kuyovingizning yozganlaridan tashqari, men sizga shu bilan oltinchi xat yozdim. **Ammo** sizdan uchta va dadamdan ikkita xat oldim. **Ayniqsa** dadamning keyingi xatidagi qora xabar bilan dori dunyo ko‘zimga toraydi. O‘lim haq, ammo **bechora** buvim jon berar ekan, yonida turib duosini olib qolmaganim uchun ko‘p **hasrat chekdir**. Ayniqsa **musofirchiligidim** yomon asar qildi.

Ko‘z yoshlarim bilan yuzimni yuvdim. Bugun beshinchini kundan beri **rahmatlik buvum** arvohiga atab qur'on boshladi. Xatm qilib bag‘ishlayman, xudo g‘ariqi rahmat qilsin, **sizga sabr bersin**. Endi musofir qizingizning baxtiga siz o‘lmang, **omin**.

Va’dan ma’lum bo‘lsinki, alhamdulillo kuyovingiz va qudalaringiz salomatdirlar va **ularning soyalarida** men qizingiz ham o‘ynab-kulib yuribman. Sizni va otamni **juda sog‘indim**....

Siz mening **telba so‘zlarimdan** achchig‘lanmang. Agar bu gapimning to‘g‘riligini bilmakchi bo‘lsangiz, Toshkent kelganganizda qayin otamning nasihatini **o‘z qulog‘ingiz** bilan eshititing-da, undan keyin so‘zimga qiymat bering!

Aza hamma vaqt topiladi **desangiz** qizingizning **ko‘ngli uchun** hali ham kelganganiz **yaxshi**. Dadamga mening arzimni aysangiz **albatta** qaytarmas. Menden dadamga **behad** salom. Kelasi oydan qo‘rqaman...

**Ko‘risholmasak** menden rozi bo‘ling, dadam va boshqa yori do‘stlar ham. Kumush yozdim.

Toshkent, 1269-yil 1-qavs oyida.

*A. Кадыри, из романа «Минувшие дни»*

Б) найдите отличительные черты данного письма от официального письма.

**Упражнение 57.** Перепишите предложения, поставив вместо точек подходящие слова или аффиксы. Объясните, почему вы выбрали именно это слово или аффикс.

1. Ta’til boshlanishi... (*bilan, tufayli*)... (sen, siz)ning kelishing... (-*izni, -ni*) orziqib kutaman. 2. Menden hammaga... (*ayniqsa, xususan*) sinfdoshlaringga... (*tegishli, ko‘pdan-ko‘p*) salom... (-*ni, -lar*) yetkaz... (-*ishingni* so‘rayman, -asan deb o‘layman). 3. Ushbu... (*xat, maktub*) senga qaysi... (*kun, sana*)da yetib bor... (-*ishi bilan, -sa*) darrov javob yoz... (-*ishing*

*kerak, -giri), xo‘pmi. 4. Yuborgan... (mablag‘, pul)laringizni oldim, katta... (rahmat, tashakkur). 5. Bo‘sish qol... (-dimmi, -gan taqdirda) xayolimni sizdan uz... (-ishim mumkin emas, - olmay qolaman).*



**Личные письма** в зависимости от содержания и функции бывают двух видов. В повседневной жизни широко применяется письмо или послание, выражающее в основном семейные или дружеские отношения. В отличие от официальных писем частные письма не ограничиваются объемом, они излагаются в свободной форме, содержание текста может отражать чувства, внутренние переживания пишущего, шутки, остроты, обиды, разочарования, предложения, несогласие, благодарность, изложенные в стиле, приближенном к разговорному или художественному. В такой свободной форме пишутся письма по поводу сотрудничества, а также приветственные, любовные, дружеские и другие послания.

Существует также вид личного письма, характерный для *дипломатической переписки*. Оно носит полуофициальный характер. Текст такого письма может содержать новости личной жизни руководителей государства или дипломатических сотрудников. Оно также может отражать информацию о подношении подарка, выражении благодарности, а также выражать просьбу в связи с решением поставленных задач во время официальной встречи. В отличие от выше охарактеризованного личного письма дипломатическая переписка осуществляется сугубо на литературном языке.

**Задание 68.** Уточните различие вышеприведенного диалога от стиля обычной разговорной речи.

**Задание 69.** Прочитайте данный текст. Объясните смысл фраз, отражающих этику телефонного разговора.

Agar siz qo‘ng‘iroq qilsangiz, albatta, gapni **salom-alikdan boshlang**. Shundan so‘ng **o‘zingizni taniting** (ish yuzasidan telefon qilsangiz xizmat vazifangizni ham aytganingiz ma’qul)

va kerakli joyga tushdingizmi yoki yo‘qmi shuni aniqlab oling. Kerakli joyga tushganingizga ishonch hosil qilganingizdan so‘ng sizga zarur bo‘lgan kishini **chaqirib berishlarini iltimos qiling**. Hol-ahvol so‘rab, asosiy maqsadga o‘ting. Telefonda **qisqa, lo‘nda gaplashishga** harakat qilishingiz lozim. Xayrlashib bo‘lganingizdan keyin telefon dastagini **birinchi bo‘lib siz qo‘ying, chunki** telefon raqamini siz tergansiz.

Agar sizni telefonga chaqirishsa, «**Labbay**» yoki «**Eshitanman**», deb javob qiling. Boshqa joyga tushib, sizdan kechirim so‘rashsa, «**Marhamat, hechqisi yo‘q**», deb dastakni qo‘ying. Telefon orqali muloqot qilayotganingizda xodimlardan biri huzuringizga kelib muhim ishi borligini aytib qolsa, hamsuh-batingizdan **uzr so‘rang** va ma’lum vaqtdan keyin unga o‘zingiz qo‘ng‘iroq qilishingizni aytib, telefon dastagini **ohista qo‘ying**. Telefonda gaplashayotganda o‘tirgan joydan turib, qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib yoki boshni egib gaplashish kabilar odob doira-siga kirmaydi. Bu holatda gaplashsangiz atrofdagi xodimlarning g‘ashiga tegasiz.

**Упражнение 58.** Составьте предложения на основе данных структур, а на основе предложений напишите текст.

Kim?      >      xabar yetkazadi.

Kimga?

Kim?      >      qabul qiladi.

Kimdan?

Qachon?      >      yig‘ilish bo‘ladi (o‘tkaziladi).

Nima?

Kim?      >      qatnashishi (tayyorgarlik ko‘rishi) shart.

Nima

uchun?

**Задание 70.** Прочитайте данную телефонограмму. На ее основе составьте текст телефонограммы о предстоящем отчет-

но-выборном собрании молодежного общественного движения «Камолот».

«Ustoz» jamg‘armasi  
Yetkazuvchi — kotiba  
Salimova. Tel: 245-16-20

O‘zMU qoshidagi  
akademik litsey direktoriga  
Qabul qiluvchi — kotiba  
Turopova.  
Tel: 246-36-95 soat 15:30

## TELEFONOGRAMMA

2002. 18.04. Toshkent

№ 14

Respublika «Ustoz» jamg‘armasi hay’at boshqaruvi yig‘ilishi qaroriga ko‘ra litseyingizga bir dona IBM PC—150 rusumli kompyuter ajratildi. Uni qabul qilib olish uchun Siz ishonchnoma bilan o‘z vakilingizni yuborishingiz lozim.

Jamg‘arma raisi

I. Shodmonqulov.



**Срочная информация** доставляется в намеченное место посредством телефонограммы.

Текст телефонограммы подготавливается в одном экземпляре, который подписывается руководителем или ответственным лицом и сообщается в необходимые места по телефону.

Вызванному по телефону лицу сообщается о передаче телефонограммы. После того, как тот приготовится к приему, медленно диктуется текст телефонограммы.

Для того чтобы удостовериться в правильности переданной телефонограммы, звонивший обязан попросить у получателя зачитать полученный текст. Получатель отмечает время получения телефонограммы и записывает имя, фамилию, должность отправителя.

Точно такие же сведения должен записать у себя и отправитель.

**Задание 71.** А) подготовьте текст информации для факса или электронной почты (e-mail) о каком-либо мероприятии, намеченном в вашем лицее или колледже. Уточните, какие необходимые элементы должны присутствовать в факсограмме в отличие от телефонограммы.

Б) ответьте на вопросы:

1. Faksogramma orqali xabar jo‘natishdan oldin qanday tayyorgarlik ishlari bajariladi?
2. Faks orqali yo‘llangan xabaringiz qabul qilinganligini nima bilan asoslash mumkin?
3. Faksogrammani to‘g‘ri qabul qilish uchun nimalarga e’tibor berish kerak?

**Упражнение 59.** Используя данные словосочетания, составьте текст телефонограммы.

Madaniyat saroyida, ish bilan ta’minlashga oid, tuman bandlik xizmati, yoshlar taklif etiladi, 5-may soat 16:30 da, korxona va tashkilot vakillari, O‘zbekiston Milliy universiteti, talabalar shaharchasida yashovchi.

**Задание 72.** Прочитайте текст телеграммы. Уточните, чем она отличается от телефонограммы.

Farg‘ona 16 Buvayda 8  
Inomjon Qodirovga

Yigirma beshinchchi martda uyimizga o‘rtog‘im Asadulla boradi. U bilan haydovchilik guvohnomamni berib yuboring, o‘g‘lingiz Ilhom.



**Телеграмма** — краткая и сжатая форма доставки срочной информации по телеграфу. Текст телеграммы, отражающий содержание информации, пишется печатными буквами через два интервала. Текст, предварительно написанный рукой, должен быть четким и понятным. Он должен состоять из простых, коротких, неполных предложений, знаки препинания не ставятся. При изложении сообщения используются правильные, емкие по содержанию фразы. Телеграфная форма сообщения требует по возможности сокращение языковых сочетаний.

**Задание 73.** А) для отправки срочного сообщения составьте тексты телеграмм следующей тематики:

1) yaqin do'stingizni o'zingizning yoki qarindoshingizning to'yiga taklif qiling; 2) yuqori davlat hokimiyati idoralari (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, viloyat hokimligi)ga erishgan katta yutug'ingiz to'g'risida xabar yozing;

Б) ответьте на следующие вопросы:

1. Yuqoridagi ikki telegrammaning qaysi birida pochta manzili ko'rsatilmaydi?
2. Telegramma bilan telefonogramma o'rtaida qanday farqlar bor?
3. Fototelegrammadan qanday maqsadlarda foydalaniladi?
4. Telegrammada tinish belgisi qo'yilishi mumkin bo'lган holatni izohlang.

**Упражнение 60.** Перепишите в тетрадь словосочетания и предложения, поставив рядом с ними их синонимы или близкие по смыслу предложения.

Yig'ilishda qatnashishlari shart, «Milliy tiklanish» partiyasi a'zoligiga qabul qilindim, 5218 raqamli joriy hisobingdan, bu to'g'rida takror xabar beriladi, jamg'arma qaroriga ko'ra, namunali tashkil etilganligi sababli, majlisda bo'lishlari kerak, bu haqda qo'shimcha ma'lumot beriladi, 1018 raqamdagagi o'z joriy hisobim mablag'idan, Meni «Milliy tiklanish» partiyasi safiga olishdi, yaxshi tayyorlanganligi tufayli, jamg'arma tomonidan chiqarilgan qarorga muvofiq.

**Упражнение 61.** Прочитайте данные предложения, уточните лексико-стилистические ошибки и разъясните их.

1. Litsey oshxonasida ovqatlanish xavfsizligi oyligini o'tkazdi.
2. Hamma qo'shimchasi bor o'quvchilar yig'ilishga.
3. Mavjud chora-tadbirlar belgilangandan avval intizom yaxshilandi.
4. Pedagogik katta stajga egaman.
5. Eshikni ochmasimdan kirishga taklif etdilar.
6. Bu yo'ldan yurish hozircha taqiqlanadi.
7. Ota vasiyatini quyoqqa quyish, har qachon esdan chiqarmaslik kerak.

**Задание 74.** Используя данные словосочетания, составьте предложения, которые разъясняли бы, по какой причине выполнено или с какой целью не выполнено задание или действие.

Ma'nodosh so'zni topolmaganligi uchun, vergulni o'rinsiz ishlatganidan, fikrini asoslash maqsadida, muddati ko'rsatilmaganligi tufayli, telefon ishlayotganligi sababli, zudlik bilan yetkazish maqsadida, hisob raqami o'zgarganligi munosabati bilan, ko'chma ma'noni ifodalasin deb, tutuq belgisi teskari qo'yilganligidan, ishontirish maqsadida, bosh harf bilan yozmaganligi uchun.



Текст документа должен соответствовать таким требованиям, как точность, краткость, конкретность, полнота содержания. Эти особенности обеспечиваются свойственными языку делопроизводства своеобразной стилистикой, путем использования специальных слов, морфологическими и синтаксическими знаками.

Точность и полнота содержания в служебной переписке зависит от обоснованности мысли и аргументов. **Аргументами и обоснованием** в делопроизводстве может выступать следующее:

— указание конкретных пунктов, статей, параграфов соответствующих официальных законов, соглашений, договоров. Например: «*O'zR fuqarolik kodeksining 1135-moddasiga muvofiq*», «*Tuzilgan shartnomaning 3-bandiga asosan*» (на основе статьи 1135 Гражданского кодекса РУ; в соответствии с пунктом 3 принятого договора);

— подтверждение изменений в законодательстве или во взаимных договоренностях, изменение адреса. Например: «*boshqa shaharga ko'chishi munosabati bilan*» (в связи с переездом в другой город);

— на основе учета цифровых показателей. Например: «*davlat raqami bo'lgan VAZ 2107 rusumli yengil avtomobil bilan*» (легковая машина марки ВАЗ-2107 за номером 10S6260);

— деловые стандарты или клишированные словосочетания, выражающие логическую основу, такие как: «*shunga ko‘ra*», «*munosabati bilan*», «...*ganligi sababli*», «...*ishi uchun*», «*oqibatida*», «...*masligi tufayli*», «*shu maqsadda*», «*guvohlik berishicha*», «*tekshiruv natijasiga binoan*» (поэтому, в связи с этим, как свидетельствует, по итогам проверки) и т.д.

**Задание 75.** Прочитайте данный текст, определите его необходимые части и охарактеризуйте их.

### TARJIMAYI HOL

Men, Sobirov Nodir Nozim o‘g‘li, 1985-yil 27-iyunda Buxoro shahrida xizmatchi oilasida tug‘ildim. Otam — Sobirov Nozim viloyat yo‘l qurilishi boshqarmasining bosh muhandisi, onam — Nomozova Nasiba 18-o‘rta maktabda o‘qituvchi bo‘lib ishlaydilar. Oilada 4 kishimiz. Ukam — Nasim 7-sinfda o‘qyidi.

1992-yildan 2002-yilgacha Buxoro shahridagi 18-maktabda o‘qidim. Maktabda sinf devoriy gazetasi muharriri bo‘ldim. Ona tili va adabiyot fanlariga juda qiziqaman. Bu fan bo‘yicha viloyat olimpiadasida 2-o‘rinni egallaganman. Tennis bo‘yicha respublika musobaqalarida faxrli o‘rinlarni olganman.

9-sinfni tugatib, 2002-yilda Buxoro davlat universitetining akademik litseyiga o‘qishga kirdim.

Mening turar joyim: Buxoro shahri, Yangiyer ko‘chasi, 51-uy.

(подпись) *N. Sobirov.*

*2002-yil 21-may*

**Упражнение 62.** Перепишите в тетрадь данные слова и словосочетания, разъясните их содержание, затем, используя их, составьте предложения.

Dehqon oilasida tug‘ildim, savdo uyushmasi raisi, bo‘lim mudiri vazifasida ishlaydi, maktabni tamomladim, o‘qishga kirdim, lavozimida ishladim, a’zosiman, qatnashaman, uylan-ganman, turmush o‘rtog‘im, jamoat ishi, saylanganman.

**Задание 76.** Разъясните смысл словосочетаний **ijtimoiy kelib chiqishi** (социальное происхождение) и **ijtimoiy ahvoli** (со-

циальное положение). Составьте краткий текст о своем социальном происхождении и социальном положении.

**Упражнение 63.** Перепишите в тетрадь содержание заявления (Ariza), поставив вместо многоточий необходимые аффиксы или слова. Разъясните смысл выделенных слов.

Toshkent Davlat pedagogika universitet...  
rektori prof. B.G'. *Qodirovga*  
... fakulteti... II kurs talaba... *Samad*  
*Qosimovdan*

## ARIZA

Men «Umid» jamg‘arma... **tanlovida** ... natijalarga erish... imtiyozli o‘rinni **qo‘lga kirit**.... Shuning ... «Umid» jamg‘armasi men... Amerika Qo‘shma ... ga o‘qish uchun **yo‘llanma berishga** ... qildi.

O‘qishimni Amerik... Shtatlari... Kaliforniya universiteti... tarix fakultetida ... **ettirish uchun** ruxsat... ni **so‘ray**.... .

(imzo) *S. Qosimov.*  
2002-yil 28-may



**Заявление** считается официальным документом, обращенным к конкретной организации или на имя руководящего лица, которое содержит какую-либо просьбу, предложение или жалобу. Официальный документ, активно используемый в делопроизводстве, тоже является заявлением.

Заявления бывают разными по содержанию, стилю и объему. Так как заявления, написанные по разным вопросам, начиная от учащегося или студента на имя руководителя учебного заведения, до заявлений трудящихся и просто граждан на имя начальников учреждений и хакимов, отличаются друг от друга. Независимо от этого, куда и кому адресовано, в любом заявлении должны присутствовать **обязательные элементы — реквизиты** документа:

— адрес или должность подателя заявления, его имя, отчество, фамилия;

- наименование документа (*Заявление — Ariza*);
- текст заявления (*прощение, предложение или жалоба — iltimos, taklif yoki shikoyat*);
- при необходимости наименования приложенных документов;
- в левой нижней части бумаги время написания документа (*yil, kun, oy — день, месяц, год*);
- в правой нижней части бумаги подпись подателя заявления, первые буквы имени и отчества, фамилия.

**Упражнение 64.** Перепишите в тетрадь данный текст, расставив в вышеуказанной последовательности обязательные элементы, характерные для заявления.

Kasalligim tufayli qishki sinov va imtihonlarni o‘z vaqtida topshira olmadim. Toshkent yuridik kolleji direktori M. Mirhamidovga. I. Abdullayev. Shu sinov va imtihonlarni topshirishga ruxsat berishingizni so‘rayman. Ariza. 2002.23.02. Arizamga kasalligim to‘g‘risidagi tibbiy ma’lumotnoma ilova qilindi. 2-bosqich talabasi Ilhom Abdullayevdan.

